

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
O‘ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI
ADABIYOTSHUNOSLIK KAFEDRASI**

“Himoyaga tavsiya etilsin”

O‘zbek filologiyasi fakulteti

dekani _____ f.f.n. Sh.Nuriddinov

“ ____ ” _____ 2016-yil

“5120100-Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili)” ta’lim yo‘nalishi
IV kurs 012-10-guruh talabasi

**HAYDAROVA SITORANING
VALTER SKOTT - ROMANNAVIS
mavzusida yozgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Talaba: _____ Haydarova S.

Ilmiy rahbar: _____ kat.o‘q. I.Jabborov

“ ____ ” _____ 2016-yil

“Himoyaga tavsiya etilsin”

Adabiyotshunoslik kafedrası

mudiri _____ f.f.d. N.Shodmonov

“ ____ ” _____ 2016-yil

QARSHI – 2016 yil

Mundarija:

KIRISH

I BOB. YEVRIPA ROMANTIZM ADABIYOTI.

1.1. Romantizm ijodiy metodining Yevropa adabiyotida shakillanishi.

1.2. Ingliz romantizm adabiyoti va uning taraqqiyotida V. Skott ijodining ahamiyati.

II BOB. V. SKOTT IJODINING G‘OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATI.

2.1. V. Skott ijodida an‘ana va o‘ziga xoslik

2.2. «Ueverli»,» Kventin Dorvard» va «Puritanlar» romanlarining badiiy talqini.

2.3. V. Skottning obraz yaratishdagi mahorati.

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

Kirish

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Valter Skott asarlarini yagona to‘plam qilib yig‘ilsa, ulkan kutubxonani tashkil etadi. Bitmas-tuganmas mehnatsevarlik, o‘ta boy bilim va ajoyib xotiraga ega bo‘lgan yozuvchi taqdir unga ajratgan oltmish yildan ortiqroq vaqt ichida ko‘plab romanlar, ikki tomlik «Shotlandiya tarixi»ni, “Napoleon Bonapart hayoti”ni, bir qancha ocherk-tanqidiy kitobchalar, yoshligida esa yana ko‘plab poema va she‘rlar to‘plamlarini yaratdi. Hayotlik chog‘ida Valter Skott jahon adabiyotining eng buyuk arboblardan sanalgan. Uning shon-shuhrati olamga tarqaldi. Kitoblari o‘sha payt uchun beqiyos, minglab tirajda chop etilar, ularni kitobxonlar intiq bo‘lib kutar, uning asarlari hatto Bayron va Gyoteni ham lol qoldirgan edi. Tarixiy roman uning qalami bilan tengsiz xislatlar orttirdi. Valter Skott kitoblarida ochiladigan tarixiy manzara o‘ta keng va ko‘lamli. A.S.Pushkin aytganidek, bu shotlandiyalik sehrgar o‘z asarlarida Angliya va Shotlandiya tarixiga oid eng muhim o‘tish davrlarini bayon etib, ularda o‘rta asr Fransiyasining hayotini tasvirlar, Yevropa ritsarlarining Yaqin Sharqqa qilgan salb yurishlari manzaralarini kitobxon ko‘z o‘ngida gavdalantirar edi. Valter Skottga qadar bironta yozuvchi moziyda qolgan davrlarni ushbu o‘rtahol dvoryani, advokat, Oliy Shotlandiya sudining kotibi, Edinburg yaqinidagi Selkirk okrugi sherifi, keyinchalik baronet va gersog Vellington va bo‘lg‘usi qirol – Georg IV - shahzoda regentning yaqin suhbatdoshi, kabi yaxlit va bo‘yoqdor qilib tasvirlay olmagan. Valter Skottning vatani – Buyuk Britaniyadagi, shu bilan birga butun Yevropa va Shimoliy Amerikada ham mashhurligi aslo tasodifiy emasdi. U kitobxonlar tasavvurini o‘ta murakkab va qiziqarli syujet intrigasi, tasvirlarining yorqin va batafsilligi, shaxslarning ruhiy jihatlarini o‘ta nozik belgilashi, turli davrlarning real tarixiy arboblarning bexato tavsifini bera olishi bilan jalb etib, tarixga oshno qilar edi. U Yevropa adabiyotida birinchi bo‘lib o‘z asarlarida oddiy insonni tasvirlanayotgan zamonaning keng ko‘lamli voqealari bilan birlashtirdi, omma orasidagi odamni qirollar va vazirlar, shahzodalar va ayonlar bilan to‘qnashtirib, tarixiy silsilalar oqimini mehnatkash ommaning har kungi, oddiy turmushi bilan bog‘liklikda namoyish etdi. Valter Skott, V. G. Belinskiy

aytganidek, «oʻz romanlari bilan tarixiy hayotning xususiy hayot bilan bogʻliqligi masalasini hal qildi». Tarixni siljitgan haqiqiy prujinalarni topib, Valter Skott Yevropaning realistik adabiyotida tarixiylik asoslarini yaratdi va oʻn toʻqqizinchi asrning buyuk yozuvchilari – Onore de Balzak, yoki “Kapitan qizi”ning muallifi A.S.Pushkinning maʼlum maʼnodagi ustoziga aylandi. «Otamiz - Valter Skott», deb takrorlashni yaxshi koʻrardi «Insoniylik komediyasi» muallifi hamdir bu uning yetuk ijodkor boʻlganidan darak beradi “yosh avlodni har tomonlama mustaqil fikrlaydigan yetuk dunyoqarash egalari qilib tarbiyalashdan iborat”¹ shu nuqtai nazardan ham ushbu mavzuni oʻrganish adabiyotshunoslikning dolzarb vazifalaridandir.

Ilmiy izlanishlarning maqsad va vazifalari. Valter Skott yashagan davrni na tinch, na osoyishta deb boʻlmaydi. Shimoliy Amerika kolonistlari oʻz metropoliyasi – Angliyaga qarshi urush boshlab, oʻzlarida yangicha burjua tartibi oʻrnatganlarida u hali bola edi. Tez orada inqilob boʻroni Fransiya larzaga keltirib, Burbonlar monarxiyasi inqirozga yuz tutib, burjuaziya hokimiyat tepasiga keldi. Bu hodisalar yosh Valter Skottga ham tegishli edi: 1797-1798 yillarda Angliya aholisi fransuzlar bosqinini kutayotgan bir paytda u qirol dragunlarining edinburg korpusi tarkibiga kiritilib, vaqtincha chavandoz boʻlib qoldi.

Napoleonning bosqinchilik urushlari Yevropa xalqlarining kuchli qarshiligiga duch keldi. Fransuz bosqiniga ispanlar qattiq qarshilik koʻrsatgan boʻlsalar, Rossiyada esa bosqinchilar qaqshatqich magʻlubiyatga uchradilar. Koʻplab mamlakatlarda milliy-ozodlik harakati yuzaga kela boshladi. Irlandiyada ham zolim inglizlarga qarshi kurash tinmay davom etdi. Oʻz milliy ozodligi dushmani – turklarga qarshi yunonlar ham kurashga koʻtarildilar. Avstriyalik bosqinchilar etigi ostida ezilgan, azoblangan Italiya xalqi qoʻzgʻolon koʻtarishga tayyor edi. Angliyaning oʻzida oʻn sakkizinchi asr oxirida gurkirab rivojlanayotgan sanoat xalq hayoti va uning anʼanaviy turmush tarzini singdirayotgandi. Valter Skott hayoti va ijodiga oid manbalarni toʻplash, ularni jahon adabiyoti ilming

¹ Karimov, I. A. “Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch”. : T – “Maʼnaviyat”. 2008. 75-bet

so'nggi yutuqlari asosida o'rganish, tahlil etish hamda adibning jahon adabiyotida tutgan o'rnini belgilash

Mavzuning o'rganilganlik darajasining qiyosiy tahlili. Valter Skott ijodini o'rganishda mashhur adabiyotshunoslar O.Sharafiddinov, F.Sulaymonova, M.Xolbekov, Shoira Normatova singari olimlarning jahon adabiyotiga doir qimmatli fikrlari ijodkorning asarlarini tahlil qilishda asosiy manbaa bo'lib xizmat qildi.

Valter Skott ko'pgina asarlarida hali-hamon ko'hna o'tmish sarqitlari kuchli bo'lgan o'z jonajon Shotlandiyasida dehqonlarning uyushmalari yerlaridan judo bo'lib, qashshoqlashib borishi, zodagonlar yerlari yo'q bo'lib ketishining guvohi bo'ldi. Kapitalizm eng chekka qishloqlargacha yetib keldi. Shu vaqtning o'zida Angliyada ishchilar harakati kuchayib, kapitalistlarga qarshi kurash kengaya boshladi. O'n to'qqizinchi asr boshida ular ayniqsa vahimali tus oldilar. Ish tashlash va ishchilar chiqishlari odatiy hodisaga aylanib, ular goh pasayib, goh yangidan kuchayib ketardi. Valter Skott hayotining so'nggi qismida mamlakatda parlament islohoti uchun kurash avjiga chiqib, Angliyaning reaksiyon kuchlari unga qarshi chiqdilar.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Skott - tarixchi, Skott - romannavis dunyoqarashlarida chuqur iz qoldirdi. V.G.Belinskiy Skott ijodkor sifatida, Shekspir kabi, faqat "dahshatli siyosiy to'fonlar, shunda ham tashqidan ko'ra ko'proq ichki to'fonlar ta'sirida taraqqiy etib borgan mamlakatda" tug'ilishi mumkin deb yozgan edi. Valter Skott tarixning tantanavor qadamida qandaydir qonuniyat topishga intilib, yangilikning g'olibligini, shu bilan birga ko'hna, eskining mag'lubiyatini qalbi bilan his qiladi. U o'z romanlarida xalq va davlat manfaatlari bilan munofiqona o'yin qilib yurgan feodal zodagonlarni achchiq kinoya bilan tasvirlaydi. Yozuvchi bugungi kunni tasavvur qilish va hatto kelajakni ko'z oldiga keltirish maqsadida o'tmishga qaytadi. Buyuk tarixiy o'zgarishlarda, inqilobiy portlashlarda u xalq ommasining ulug' qudratini his etib, bu hol uning eng yaxshi asarlari – "Rob Roy", "Ayvengo", "Vudstok", "Puritanlar" romanlarida aks etdi. Tarixga ana shunday yondashuvi tufayli Valter Skott asarlari ko'p

jihtadan voqelikni to'g'ri aks ettirgan. Yozuvchi o'z kitoblarida xalq ommasining mardligi va insoniyligi, Angliya hukmron sinflarining jinoyatlari to'g'risida so'zlaydi. U «Ayvengo»da xalq qo'shiqlari va ertaklarining afsonaviy qahramoni – erkin o'rmon qamonchilari yetakchisi Robin Gudni tasvirlaydi; xuddi shu romanda turli joylardan yig'ilgan xalq ritsarlarning qaroqchilik “uyasi” – Fron de Bef qasriga hujum qiladilar. Xalqqa tarixning qudratli kuchi deb qarash romannavisning oliy yutuqlaridan biri bo'lib xizmat qildi buni mazvzuda yoritish tahlil qilish ilmiy yangiligini tashkil etadi.

“Xalq xulq-atvorini jamiyatning kiborlariga qarab baholash mumkin emas” degan edi ommaviy sahnalarni ulkan mahorat bilan ifodalagan yozuvchi. Valter Skott xalq qahramonligi va intilishlari mahsulidan odatada hukmron toifalar foydalanib, xalq voqea-hodisalarda mustaqil rol o'ynashga tayyor emas degan fikrni bildiradi, ammo ushbu xalq hukmron sinflarga qarshi turib, milliy an'analarning asl tashuvchisi hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti va obykti. Valter Skott ijodi asosan “Ayvengo” “Vudstok” “Puritanlar” “Rob Roy” asarlarida, shuningdek M. Xolbekov, Sh.Normatova, F.Boynazarovlarning jahon adabiyoti o'quv qo'llanmalarida to'xtalgan. Mazkur manbaalar adib asarlaring tadqiqot obyektini, Valter Skott asarlarining mavzu ko'lami, poyetikasi va tahliliy tadqiqi masalalarini o'rganish ushbu bitiruv ishning predmetini tashkil etadi.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyiti. Mazkur BMI natijalaridan oliy va o'rta maxsus talim muassasalari filologiya fakul'tetlarida, akademik litseylarda “jahon adabiyoti tarixi” jahon adabiyoti fanlaridan dars mashg'ulotlari o'tishda, uslubiy ko'rsatmalar tayyorlashda foydalanish mumkin

I-bob. Yevropa romantizm adabiyoti.

1.1 Romantizm ijodiy metodining Yevropa adabiyotida shakllanishi

Jahon adabiyotida romantizm ijodiy metodi Fransiya, Germaniya, Angliya, Polsha va Amerika mamlakatlarida XVIII-XIX asrlarda paydo bilib, shu asr yozuvchilari ijodida izining tila=onli ijodiy metod ekanligini namoyon eta oldi.

Jahonning deyarlik barcha xalqlari romantizm metodiga o'z hissalarini qo'shgan. Bunda birinchidan hayotiylik, badiiy tafakkur tarixida qaynagan ijobiy roli sezilsa, ikkinchidan, tabiatan g'oyat murakkabligi, o'ziga xosligi, ziddiyatliligi bilan ham ko'zga tashlanib turadi. Har bir xalq adabiyotidagi romantizm aniq ijtimoiy-tarixiy muhit taqozasiga ko'ra, o'ziga xos milliy xususiyatlariga ega bo'ladi va ayni chog'da, barcha xalqlar adabiyotlaridagi romantizmni xarakterlovchi mushtarak tomanlari ham mavjud.

Romantizm (frans. Romantisme – roman tilida yozilgan asar) – Yevropa va Amerika mamlakatlarida XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida ijodiy metod sifatida shakllangan. Sentimentalizm asosida yaratilgan romantizm bu davrdagi inqilobiy siljishlarning mahsuli, uning badiiy tafakkurdagi inikosi sifatida paydo bo'lgan.

V. G. Belinskiy aytganidek, romantizm ildizlari qadim zamonlar ya'ni antik adabiyotga borib taqaladi. Hayotni tasvirlashning romantik va realistik usullari, ibtidoiy tarzda bo'lsa-da, Aristotelga ham ma'lum edi. Biroq qadimgi romantizm metodi hoida emas, element (bo'lak, ko'rinish), tendensiya (an'ana) tarzidagi romantizm (to'g'rirog'i romantika) bo'lgan. Badiiy adabiyotdagi romantika esa insoniyat tarixi boshlangandan beri inson bilan kelayotgan eng qadimgi va o'lmas ijodiy metodlardan biridir.

Romantizm eng avvalo shu bilan xarakterlanadiki, bu hayotni badiiy tadqiq etganda, uni sotsial tarixiy aniqlik bilan ko'rsatishga nisbatan hayot haqidagi konsepsiyalarga tayanib ish tutadi.

Romantik yozuvchi qandaydir guzal va mukammal hayotni orzu qiladi, ammo o'z orzusidagi turmush tarzini mavjud voqeylikdan topa olmaydi. O'z

atrofidagi muhitdan norozi bo‘ladi, uni tasvirlashdan kura xayolidagi guzal hayotni aks ettirishni yoxud muayyan voqeylikni pardozlab kursatishni afzal deb biladi.

Demak, romantizmda inson qanday bo‘lsa shundayligicha emas, aksincha qanday bo‘lishi kerak bo‘lsa (albatta ijodkor nazarida) o‘shanday ko‘rsatilar edi.

Romantizm metodi orzusi, xayolni aks ettirishga ko‘proq e‘tibor berganligi sababli ijobiy obrazlarning aksariyati idellashtiriladi. Masalan, Hazrat Navoiyning «Farhod va Shirin» dostonida shoir Farhodni ancha ideallashtirib ko‘rsatadi. U. SHekspirning «Gamlet» yoki «Romeo va Julyetta» shunga o‘xshash ko‘pgina asarlarda buni ko‘rishimiz mumkin. Demak, asarlarning asosiy qahramonlari o‘sha muhitdagi real odamlarning xuddi o‘zi emas, ular orzudagi qahramonlar, ideal obrazlardir. Biroq bu obrazlar ham XV-XVII asr sharoiti bilan qattiq bog‘lanadi: shoirlar shu davrning bir qator muammolarini (shaxs kamoloti, turli xalqlar o‘rtasida do‘stlik va birodarlik, mamlakat mudofaasi, cho‘l va sahrolarni o‘zlashtirish, adolatli shoh uchun kurash, sevgi va sadoqatni) ifodalaydi, o‘z davri shahzodalarini xuddi Farhodu Gamletdek bo‘lishga da’vat etadi.

Romantizm uchun hayotni tarixiy jihatdan konkert tasvirlash prinsipi butunlay begona emas. Chunonchi, romantik satirada personaj-obrazlar o‘z muhitida konkret tasvirlanadi. Biroq romantizm uchun, bari bir, mavjud voqelikni tahlil etish, uni tarixiy jihatdan konkret ifodalash u qadar xarakterli emas. Romantik yozuvchini ko‘proq boshqa narsa (zamondoshlarining go‘zallikka shiddat bilan intilishi, ularning ham, o‘zining ham estetik idealini ifodalash, jamiyatga subyektiv munosabatini bildirish) qiziqtiradi.

Inson ruhining jo‘shqinligi va shiddatini tasvirlash – romantizmning asosiy xususiyati. Romantik yozuvchi asarida bevosita o‘z tilidan yoxud qahramonlari tilidan o‘z tashvishi va qayg‘usini, nafrati va quvonchini bayon qilar ekan, xalqning o‘y-xayollarini, kechinma va umidlarini, porloq kelajak haqidagi orzularini ham ifodalaydi. «Romeo va Julyetta» asarida ikki yoshning sevgi-muhabbatini sharaflar ekan, ularning o‘sha nobop feodal jamiyatda muhabbat yo‘lida behad azob-uqubatlar chekkanini, visol damidagi shodu-xurramligi-yu,

hijron o'qidan bag'ri yaralanishi, behad qayg'u-iztiroblarga muhtalo bo'lishini – ular qalbining tug'yoni va shiddatini yuksak mahorat bilan ifodalash orqali o'sha davrdagi jamiyatning shaxs erki, oila, muhabbat, tenglik, adolat uchun kurash haqidagi orzu-istaklarini mujassamlashtiradi; ezgu orzalarning ushaliishiga imkon bermaydigan sotsial muhitdan noroziligini, unga nafratini bildiradi.

Romantik asarlarda, odatda, afsonalar va miflarga tez-tez turojat qilib turiladi: romantik qahramonlar afsonaviy kuch-quvvatga ega bo'ladi, g'ayri tabiiy, mo'jizali hodisalar ko'proq ko'rsatiladi. Bu o'rinda «Sanddi Iskandariy» dostonidagi «oynai jahon», «Farhod va Shirin» dostonidagi «Iskandar tilsimi» kabi mo'jizalarni va doston qahramonlarining afsonaviy kuch-quvvatga ega ekanliklarini eslash kifoya.

Romantik yozuvchi o'z asari voqea-hodisalari va qahramonlarini boshqa tarixiy davr va boshqa mamlakatlarga ko'chirib tasvirlaydi. Aslida esa ularni muallifning o'z muhiti va zamondoshlari etishtirgan bo'ladi.

Romantizm uchun hayotni ko'tarinki ruhda, hissiyotga, bo'yoqlarga boy ravishda tasvirlash xarakterlidir. O'zbek klassik she'riyatiga, xususan, intim lirikaga nazar tashlagan kishi bu fikrni tasliqlovchi ko'plab misollarni topa oladi. O'zbek shoirlari lirik qahramon qalb tug'yonini shu qadar rango-rang, serjilo bo'yoqlarda ko'tarinki ruhda tasvirlaydi, bunday nuktadonlik o'quvchi qalbini larzaga soladi, unga behad zavq-shavq bag'ishlaydi.

Romantizm haqida fikr yuritganda romantizm va romantika terminlarining mohiyatiga tushunib olmoq kerak. Chunki, «romantika» va «romantizm» ayni bir narsa emas: romantizm – ijodiy metod, romantika – tendensiya: yuksak intilish, ko'tarinki kayfiyatlarni tasvirlash usulidir.

Romantika yoxud romantik tentedsiya qadim zamonlardan tortib bizning kunlarimizgacha davom etib kelmoqda. U doim yozuvchining ilhomiga qanot, ijodiga parvoz baxsh etib keldi. Romantika manbai real hayotning o'zida. Hayotga kishiga zavq-shavq bag'ishlaydigan yoxud kishi qalbini tug'yonga keltiradigan narsa va xodisalar (mehnat zavqi, visol dami, hijron azobi kabi) juda ko'pligi, shularning o'zi turmush romantikasidir. Turmush romantikasi yozuvchi

qalbiga ijod urug'ini sepadi, uning ilhomini jo'sh urdiradi. Shu tariqa, romantika adabiyotning doimiy yo'ldoshi bo'lib qoladi. Ammo romantizm ijodiy metod sifatida badiiy tafakkur tarixining muayyan bosqichida paydo bo'ladi va o'z funksiyasini o'tab bo'lgach, o'rnini boshqa metodga bo'shatib beradi. Bu – obyektiv qonuniyat taqozosi. Chunonchi, o'zbek adabiyoti tarixida romantizm, taxminan, dunyoviy adabiyotda, xususan, XIV-XV asr adabiyotida to'la shakllangan. Jamiyat taraqqiyotining keyingi bosqichlarida romantizm metod sifatida barham yeydi va yangi ijodiy metod – relizm vujudga kedadi.

Badiiy ijodda subyektiv faktorlarga alohida e'tibor berish romantizmning muhim xususiyatlaridan biriki, bu borada ijodkor shaxsi, uning dunyoqarashi katta rol o'ynashini unutmaslik kerak. M.Gorkiy «Yozishga qanday o'rgandim» degan maqolasida shunday deydi: «Romantizm... bir-biridan keskin ravishda farq qiladigan ikki yo'nalishni ajratmoq zarur: biri passiv romantizm bo'lib, bunisi voqelikni bo'yab ko'rsatib, u bilan kishini murosasiz qildirishga urunadi yoki voqelikdan bosh tortib, o'z zikri bilan o'zi ovora bo'lishga, «tavvakalchilik» bilan fol ochishga, muhabbat, o'lim to'g'risidagi xayolotlarga beriladi, faqat fan orqali hal qilish mumkin bo'lib, fikrga cho'mish, xom xayollar bilan sira yechilmaydigan topishmoqlarga mukka bilan sho'ng'ishga tirishadi. Ikkinchisi aktiv romantizm bo'lib, odamzodning hayotga bo'lgan irodasini kuchaytirishga, voqelikka va undagi har qanday zulmga qarshi isyon uyg'otishga intiladi».

Agar yozuvchining subyektiv qarashlari tarixiy taraqqiyot tendensiyalariga zid bo'lsa, shubhasiz, voqelikni buzib ko'rsatuvchi asar yaratishga olib keladi. Ba'zan yozuvchi «fantaziyasi» shu darajaga borib yetadiki, natijada u xayot xaqiqatini anglashga xalaqit beradi. Shu tariqa regressiv (reaksion) romantizm kelib chiqadi. Agar yozuvchi ilg'or g'oyaviy pozitsiyada tursa, uning, uning subyektivligi hayot haqiqatini ko'rsatishga xalal bermaydi, aksincha, haqqoniy, zavq-shavqli va ko'tarinki ruhdagi asarlar yaratishga olib keladi. Progressiv romantizm metodi asosida yaratilgan asarlar kishiga bitmas-tuganmas zavq-shavq bag'ishlaydi. O'zbek dunyoviy adabiyotida va demokratik tendensiyadagi

adabiyotda xuddi shu hol yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Rossiyada inqilobiy harakatning keskin tus olishi bilan bog'liq holda M.Gorkiyning romantik asarlarida yangicha romantizm – inqilobiy romantizm paydo bo'ldi. Adibning «Izergil kampir» shikoyasidagi Danko, «Qiz va o'lim» poemasidagi muhabbat o'limni yenggan mardonavor qiz, «Lochin qo'shig'i» va «Bo'ronqush haqida qo'shiq» asarlaridagi inqilobchilarning simvolik obrazlari dunyoni inqilob asosda qayta quruvchilar timsolidir. Bu asarlarda adib odamlarni dunyoni inqilob asosda qayta qurishga da'vat etadi.

Progressiv romantizm hech qachon realizmga zid emas. Ular juda ko'p hollarda bir-biri bilan payvandlashib ketadi. Hatto bir yozuvchi o'z ijodida har ikkila metoddan foydalangan paytlar ham bo'lgan. Chunonchi, M.Gorkiyning o'zi ijodini revolyutsion romantika bilan boshlab realizmga, yangi tipdagi realizm, ya'ni sotsialistik realizmga o'tgan. Bu o'rinda M.Gorkiyning quyidagi so'zlarini eslash g'oyatda zarur:

«...Balzak, Turgenev, Tolstoy, Gogol,.. Chexov singari klassik yozuvchilar haqida gapirganda, ularning romantik yoki realistligini aniq aytish qiyin. Yirik yozuvchilar ijodida realizm va romantizm hamisha birga qo'shilganday. Balzak – realist yozuvchidir, lekin u «Shavron charm» asari kabi realizmdan juda uzoq bo'lgan romanlarni ham yozdi. Gogoldan tortib Chexov va Buningacha bo'lgan hamma yirik yozuvchilarimiz singari Turgenev sham romantik ruhda bo'lgan asarlar yaratdi. Romantizm va realizmning bunday qo'shilishi bizning ulkan adabiyotimiz uchun ayniqsa xarakterlidir va bu hol adabiyotimizga originallik va kuch bag'ishlaydi».

Bu fikrlar o'tmishning ulug' shoirlari asoslagan ijodiy metodlarni o'rganishimizda metodologik ahamiyat kasb etadi. Masalaga shu nuqtai nazardan qaraganimizda, ulug' o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy metodini qanday tushunmoq kerak? Bizningcha, bu masalada prof. A.Shaytmetovning ilmiy xulosalari haqiqatga yaqin: olim shoirning asosiy ijodiy metodi romantizm ekanini isbotlaydi va ayni choqda, uning Sayid Hasan Ardasherga atab yozgan she'riy

maktubi, satirik gʻazallari, qitʼalari, «Lisonut-tayr» dostonidagi bir qator hikoyatlar, «Mahbub ul-qulub» kabi asarlari relistik xarakterdaligini uqtiradi.

1.2. Ingliz romantizm adabiyoti va uning taraqqiyotida

V. Skott ijodining ahamiyati.

Yevropa romantizm adabiyoti XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshlarida shakllandi. 1789-1794 yillardagi birinchi fransuz burjua inqilobi Yevropa feodalizm asoslariga zarba berib, burjua munosabatlarini maydonga keltirdi. Shu o'rinda Rossiyalik Vasiliy Rozanavning inqilob haqida aytgan quyidagi so'zlarini eslash mumkin. «Inqilob ikki o'lchamga ega: uzunlik va kenglik. Ammo u uchinchi o'lcham-teranlikdan mahrumdir. Ana shu sifat tufayli u hech qachon bo'liq va mazali meva bermaydi, hech qachon tugamaydi. Inqilob o'sib borib asabiylikka aylanadi. Va inson hech qachon Bas! Yetarli! Men baxtiyorman. Bugungi kunim shunday yaxshiki, menga erta kerakmas deymaydi.

Inqilob doimo azobni yetaklab yuradi va faqat ertangi kundan umid qiladi. Har bir ertangi kun uni dog'da qoldirib indinga aylanadi. Bu uzluksizlikdan hech qayerga qochib qutulib bo'lmaydi»¹

Albatta bu inqiloblarning shakllanishiga XVIII asr ma'rifatparvarlari o'zlarining butun faoliyati bilan bu inqilobni tayyorlagan edilar. Ular oqilona davlat, oqilona jamiyat o'rnatishni talab qilgan edilar. Ammo XVIII asr oxirida yuz bergan inqilob va uning natijalari ma'rifatparvarlar ishonchini oqlamadi. Aksiga olib avvalgisidan battarroq burjua tuzumi qattiq qo'l va ayyorona boshqaruv hukmronligi o'rnatildi. Bu tuzum shunisi bilan xarakterli ediki, endi zo'rlik bilan qilinadigan zulm o'rnini poraxo'rlik egalladi. Ijtimoiy hokimiyatning eng asosiy vositasi kuch va qilich emas, pul bo'lib qoldi.

Feodal tartiblari o'rniga kelgan burjua tartiblari odamlar ongida, fanda. Madaniyat va adabiyotda, san'atning barcha sohalarida keskin o'zgarishlarga olib keldi. Eski tartiblarga tarafdor bo'lgan dvoryan va aristokratlar guruhi inqilob natijalaridan norozi bo'lib, o'tmishga yuz o'girdilar. Ularga mansub yozuvchilar O'rta asrni, dini, feodal tartiblarini maqtab asarlar yozdilar va shu tufayli reaksion romantiklar deb nom oldilar. Xalqning intilishlarini ifodalovchi guruhlar ham

¹ Haqiqat manzaralari 96 mumtoz faylasuf. T. 2002 y. 368 bet.

inqilob natijalaridan norozi bo'ldilar. Ammo bular reaksion romantiklardan farq qilib, oldinga ya'ni kelajakka boqdilar. Bular ma'rifat, ozodlik, tenglik, birodorlik g'oyalariga sodiq bo'lib qoldilar. Shuning uchun bu guruh taraqqiyparvar romantiklar deb nom olganlar. Taraqqiyparvar romantiklar mehnat ahlining manfaatlarini himoya qilib chiqdilar, ozodlik uchun olib borilgan kurashlarga xayrixoxlik bildirdilar.

Taraqqiyparvar romantizm vakillaridan Angliyada U. Bleyk ijodi bilan boshlanib keyinchalik «Ko'l maktabi» deb nomlangan adabiyot vakillari ijodi bilan yuqori bosqichga ko'tarilgan. Bunga: U. Vordsvort, S. Koldridj, J. Bayron, P. B. SHelli, J. Ktis va V. Skottlarni ko'rsatish mumkin. Yuqorida nomlari keltirilgan adiblar oddiy xalqqa ishonch bilan qaradilar. Ularning taqdiriga, urf-odatlariga, milliy an'analariga, og'zaki ijodiga ijobiy munosabatda bo'ldilar. Taraqqiyparvar romantiklar deyarli barcha adabiy janrlarda ijod qildilar. Bu esa ular yozgan asarlarning rang-barang, ta'sirchan bo'lib chiqishini ta'minladi.

Taraqqiyparvar romantiklar klassitsizm adabiyotining talablariga, qonun-qoidalariga qarshi chiqib, ijod erkinligini ilgari surdilar. Ular asar mavzuini va qahramon tilini demokratlashtirdilar. XVIII asrdagi falsafiy qissalar, romanlar o'rniga qaynoq ehtiros bilan yozilgan she'rlar, romantik poemalar hamda lirik dramalar yaratildi. Taraqqiyparvar romantiklar burjua-dvaryan tartiblariga, uning g'oyaviy qashshoq hayot sharoitiga qarama-qarshi o'laroq, kuchli ehtirosli qashramonlar yaratdilar, mavjud tuzumga nisbatan murasasizlikka, unga qarshi isyonga, norozilikka chaqirdilar.

Ular yaratgan obrazlarning serqirraligi, boyligi va rang-barangligi, chuqur lirizm, hayotiy voqealar tugunidagi murakkabliklari va qarama-qarshiliklarni ko'ra bilishi bilan taraqqiyparvar romantiklar ingliz va jahon adabiyoti rivojida yangi bosqich yaratdilar.

XIX asrning tanqidiy realist yozuvchilari voqelikni kengroq, chuqur aks ettirishda romantiklar to'plagan tajribaga suyanadilar. Romantizm adabiyotining barkamol xarakterlar yaratish, hayot ziddiyatlarini yirik kontrast obrazlar

to'qnashuvida ko'rsatib berishi kabi xususiyatlari Balzak va Dikens kabi san'atkorlar realizmning shakllanishiga yordam berdi.

XVIII asr oxiridagi fransuz burjua inqilobi o'z mohiyatiga ko'ra umumevropa ahamiyatiga ega bo'ldi. Inqilobdan cho'chigan ingliz hukmron doiralari meshnatkashlarga qarshi uyushgan holda hujumga o'tdi. Bunday sharoitda Angliyaning demokratik kuchlari ham jipslashishga majbur edilar. Ular «Hururiyat jamiyati», «Konstitutsion jamiyat» va «London muxbirlari jamiyati» kabi taraqqiyparvar ruhdagi tashkilotlarni tuzadilar. Bu tashkilotlar reaksiyon kuchlariga qarshi kurashadilar. Bu davrda ajoyib publitsistlar Tomas Peyn, Vilyam Godvinlar xalq manfaatlarini yoqlab chiqadilar.

XIX asr boshlarida Angliyada luditlar sharakati avj oladi. Luditlar - mashina buzuvchilar, XIX asr boshida Angliyada sanoat taraqqiyoti natijasida ishsizlikdan xonavayron bo'lgan ishchilar xarakatidir. Angliya parlamenti luditlarga qarshi adolatsiz qonun qabul qilgan. Parlamentni bu qonuniga qarshi Bayron luditlarni himoya qilib lordlar palatasida nutq so'zlagan.

Mana shunday sharoitda shakllangan ingliz romantizmi uch xil oqimga bo'lingan:

1. «Ko'l maktabi» yoki «Leykistlar» deb nom olgan. Bu oqim vakillari Vordsvort, Sauti hamda Koldrijlar bo'lgan.
2. Taraiyparvar inqilobiy romantizm vakillari: Bayron va SHelli edilar.
3. London romantiklari deb nom olgan. Bunga J. Ktis, Lem Xezlitt, V. Skott va boshqalar.

Angliya romantiklarini keskin ravishda, mutlaqo reaksiyon yoki inqilobiy deb ham bo'lmaydi. Masalan, «Ko'l maktabi» vakillari bo'lgan «Leyuistlar» deb nom olgan Vordsvort, Koldrij va Sauti kabi yozuvchilarni butunlay reaksiyon romantiklar deyish ham bir tamonlama qiyin. Shuningdek, Angliya romantiklari ham birmuncha taraqqiyparvarlik mavqeida turib ijod qilganlar. Shu sababli ingliz romantizmi o'ziga xos milliy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Angliya romantiklari mavzuni qaysi davrdan bo'lishidan qat'iy nazar, o'z zamonasiga ishora qildilar. Masalan Bayronning «Kain» dramasi, SHellining «Ozod qilingan

Prometey», «Islom qo'zg'oloni» dramalari, V. Skottning «Ayvengo», «Kventin Dorvard» romanlari XIX asr boshlaridagi ingliz hayotiga aloqadorligi bilan ajralib turadi.

Angliyaning yirik yozuvchilaridan biri Valter Skott ajoyib san'atkor, tarixiy romanlar muallifi sifatida jahon adabiyoti xazinasiga barakali hissa qo'shdi. Skott yashab ijod etgan payt muhim voqealarga, o'zgarishlarga juda boy. Eskilik bilan yangilik o'rtasidagi kurashlar, Anliyadagi sanoat o'zgarishi, birinchi burjua inqilobi, Napoleon olib borgan bosqinchilik urushlari yozuvchi asarlariga syujet bo'lib xizmat qildi. Uning tarixiy mavzuida yozgan romanlari XII asrdan tortib to XIX asrgacha bo'lgan xilma-xil voqealarni qamrab oladi. Valter Skott hali hayot ekanligidayoq, uning nomi keng tarqalgan va buyuk zamondoshlarining tahsiniga sazovor bo'lgan. Adibning ijodiga A.S.Pushkin, V.G.Belinskiy, Onore de Balzaklar yuqori baho berdilar.

Valter Skott dunyoqarashiga ko'ra konservator edi va u «adolatli monarxiya» tarafdori bo'lib chiqdi. Revalutsion harakatlarni yoqlamadi, balki jamiyatning asta-sekinlik bilan rivojlanib borishini istadi. Shuning uchun angliyada burjuaziya bilan dvoriyanlar o'rtasidagi kelishuvchilik (1689), ya'ni siyosiy hokimiyat dvoriyanlar qo'lida qolib, iqtisodiy imtiyozlar burjuaziya sinfi ixtiyoriga o'tishi yozuvchini qanoatlantirardi. Ammo Suott o'z asarlarida hayot haqiqatlariga sodiq qolib, eski patriarxal tartiblarining halokatga mahkum etilganini, uning o'rniga yangi burjua munosabatlari kirib kelayotganini obyektiv ravishda ko'rsatib berdi.

Valter Skott tarixiy jarayonlarning rivojlanishini sinchkovlik bilan kuzatdi. Xalq ommasi harakatining tarixida o'ynagan obyektiv rolini odilona aks ettirdi. Ana shular yozuvchi yaratgan tarixiy romanlarning haqqoniyligini ta'minlagan omillar edi.

Skott kishilar taqdirini tarixiy voqealar oqimi bilan bog'liq ravishda ko'rsatib berdi. Uning har bir qahramoni aniq tarixiy sharoit va milliy hususiyatlari bilan uzviy ravishda gavdalantiriladi. V.G.Belinskiy Valter Skott ijodiga yuqori

baho berib, uning Yevropa san'atiga ijtimoiy va tarixiy yo'nalish berganini ta'kidlab, yozuvchi o'z romanlarida «tarix purjinasini» ko'rsatganini qayd qiladi.

Valter Skott 1771-yili Shotlandiyada dvoriyan oilasida tug'ildi. Uning otasi huquqshunos edi. Bo'lajak yozuvchi Shotlandiya tabiatiga, uning tarixiga qiziqib qaradi. U maktabda o'qib yurganidayoq xalq afsonalari, balladalariga maftun bo'lib qolgan edi. Skott Edinburg universitetiga kirib, huquqshunoslik kasbini egallaydi.

Advokatlik ishi bilan birga u ona yurtining tarixiga oid materiallarni, xalq og'zaki ijodining durdonalarini yig'a boshlaydi. Skottning tarixga bo'lgan qiziqishi 1796 yili Gyotening «Gyos fon Berlixingen» tarixiy drammasini tarjima qilishiga ham turtki bo'ldi.

Endi u butunlay adabiy ijod bilan shug'ullana boshladi. 1802-1808 yillarda u tomlik Shotlandiya xalq qo'shiqlarini, allaqachon romantik poemalarini nashr ettiradi. Bu qo'shiqlar va poemalar yozuvchining vatani tarixini, uning folklorini mukammal bilishini ko'rsatadi. Shotlandiya manzaralari, qadimiy feodal qasrlari, fantastika va sarguzasht unsurlarga boy bo'lgan bu asarlar unga keng shuxrat keltiradi.

Valter Skott ijodini, xarakteriga qarab, uch davrga ajratsa bo'ladi.

Birinchi davr 1796-1813-yillar dastlabki romantik poemalari yaratilgan davr.

Ikkinchi davr 1814-1818-yillar bo'lib, bu yillarda Skott Shotlandiya tarixidan olib yozgan ajoyib romanlarini («Uzverli», «Gay Mannering», «Antikvari», «Puritanlar», «Rob Roy», «Edinburg zindoni») yaratdi.

Uchinchi davr 1819-1832-yillarni qamraydi. Bu davrda yozuvchi Angliya, Fransiya hamda Shotlandiya tarixiga boshqa mamlakatlar tarixiga murojaat qilib, «Ayvengo», «Kenilvort», «Kventin Dorvard», «Vudstok», «Pert go'zali» kabi romanlarini yozdi.

Shotlandi romanlariga kiruvchi birinchi romanni «Uzverli» (1814) XVIII asr tarixidan olingan. Shotlandiya XVII asrdagi ingliz burjua revolutsiyasi tufayli yuz bergan tartiblarga qarshi qo'zg'olon ko'targanlar. Bu qo'zg'olondan maqsad, taxtdan ag'darilgan styuartlar dinastiyasi hokimiyatini qaytadan tiklashga urinish

edi. Bu qo'zg'olonga Shotland klanlar oddiy dehqonlarni ham jalb qiladi. Chunki mamlakat hayotiga singib borayotgan burjua tartiblaridan keng xalq ommasi ham norozi edi. Ammo yozuvchi bu yakobitlar qo'zg'olonining halokatga mahkum ekanligini, tarixiy jarayon to'xtovsiz olg'a qarab rivojlanib borishini ko'rsatib bergan, xalq ommasining reaksion kuchlar qo'lida qurol bo'lib qolganini aks ettirgan. Bu tarixiy haqiqatga mos ekanini, san'atkorning ijtimoiy kuchlar harakatini to'g'ri talqin qilib berganini ko'rsatar edi. Skott bu romanida tasvirlayotgan davr koloritini, ruhini ishonarli ko'rsatadi.

1816-yilda yozgan «Puritanlar» nomli romanida Skott shotlandiyalik tog'li dehqonlarning styuartlar dinastiyasiga qarshi qo'zg'olonini ko'rsatadi. Bu asar xalq ommasining qirollik zulmiga qarshi norozilik harakatini aks ettiradi.

1817 yilda yozgan «Rob Roy» romanida qashshoqlashgan shotland dehqonlarning yer egalariga qarshi kurashi hikoya qilinadi. Yirik zamindorlar shahar sanoatchilari bilan til biriktirib, u yerlarni sanoat uchun jun yetkazib beruvchi xomashyo maydoniga aylantirgan edilar. Yeridan, mol-mulkidan ajralgan Rob Roy o'ziga o'xshashlarga boshchilik qilib, shotland dehqonlarining yer egalariga qarshi kurashuvchi qasoskor rahbariga aylanadi. Bu asarda ham, «Puritanlar»da bo'lganidek, xalq ommasining o'z huquqlari uchun qo'lga qurol olib kurashga o'tlanishi ko'rsatiladi. Yozuvchi xalqining qonuniy huquqlarini himoya qilib, hukumron sinf vakillarining jinoiy ishlarini fosh etib tashlaydi.

Valter Skott Shotlandiya tarixiga oid barcha asarlarida o'sha xalq hayotini, urf-odatlarini, kiyim-kechaklarini hayron qolarli darajada ustalik bilan tasvirlab beradi. Kitobxon ko'zi o'ngida birin-ketin tarix sahifalari jonlanib o'taveradi.

Valter Skott ijodining uchinchi davrida yozgan asarlarining tarixiy doirasini yanada kengaytiradi. Bu davrda yozuvchi XVII asr Angliya hayotiga oid («Ayvengo»), XV asr Fransiya tarixiga oid («Kventin Dorvard»), salb yurishlari tarixiga oid («Tilsimot») xilma-xil romanlarini yozdi.

«Kventin Dorvard» (1823) romanida yozuvchi XV asr Fransiya tarixini, urf-odatlarini aks ettirgan. Qirol Lyudovik XI asrning mamlakatni markazlashtirish uchun dushmanlari bilan olib borayotgan siyosatini ko'rsatgan. Skott tarixiy

haqiqatga sodiq qolib, fransuz qirolining aniq psixologik qiyofasini chizib beradi. Mamlakatda absolyutizm siyosatining tantanasiga hamda fransuz qirol Lyudovik XI ga qarshi kurashayotgan tarqoq feodallar vakili sifatida gersog Burgunskiy obrazi yaratilgan.

Valter Skott 20-yillarda bir qancha tarixiy, tarixiy adabiy mavzularda asarlar yaratdi. 1827 yili “Napoleon Bonapart shayoti” 1830 yili “Shotlandiya tarixi” 1824 yili “Romannavislar shayotining tasviri”, 1826 yili “Drayden va Svift” haqidagi kitoblarini yozadi.

Uning asrlari iz moshiyati e’tibori bilan romantizm doirasidan chiqib, tanqidiy realizmga yo’l ochib berdi. Uning bu xususiyatini Onore de Balzak, Prosper Merime, A. S. Pushkin, V. Gyugo singari san’atkorlar o’z vaqtida payqadilar. V. G. Belinskiy Valter Skottni “san’at dargohidagi Kolumb” deb atadi.

V. Skott umrining so’ngi yillarida juda ko’p ishladi. Bu esa uning sog’ligini izdan chiqardi. 1832 yilida Shotlandiyada hastaligi tufayli olamdan o’tadi. V. Skottning tarixiy romanlari Yevropa va Amerika adabiyotiga kuchli ta’sir ko’rsatadi. Uning ayrim hikoyalari o’zbek tiliga ham tarjima qilingan.

II-bob. V. Skott ijodining g'oyaviy-badiiy xususiyati.

2.1. B. Skott ijodida an'ana va o'ziga xoslik.

Bir necha o'n yillar davomida Valter Skott Yevropaning eng buyuk yozuvchilaridan biri bo'ldi. Uning har bir yangi asari shu zahotiyoyq bir necha tilga o'girilib, ko'plab nashrlarda bosilib chiqardi. Gazeta va jurnallar uning nashr etilayotgan har bir romanini qutlab, u haqida maqolalar chop etar, shoirlar u haqida kuylar, romannavislar unga taqlid qilishar, tarixchilar ilhom olishar, musavvirilar asarlari asosida suratlar, bastakorlar opera yaratardilar. "Buyuk daho, asrimiz faxri, shonu-shuhrati" degan edi Belinskiy. Valter Skott Shotlandiyani dunyoga tanitgani kabi har bir mamlakat o'zini mashhur etadigan Skottini kutardi. Uning Yevropa madaniyati, tarixi, adabiyoti va san'atiga ta'siri beqiyos bo'ldi.

Biroq bu shon-shuhratga burkangan o'nlab yillar o'tib, Skott ijodi bir qadar pasaydi. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib Skott Yevropa adabiyoti sahnasini deyarli tark etdi. Uni aqlsizlikda, tarixiy bilimsizlikda, inson qalbini tushunmaslikda, asar yozish san'atidan bexabarlikda aybladilar. Avvalgi tarovat yo'qoldi. Endilikda uni hech kim Pushkin kabi shotland sehgari deb atamas edi. "Daho" yozuvchi bolalar yozuvchisiga aylanib, hatto kichkintoylar ham undan ko'ra Mayn Rid va Jyul Vern asarlarini afzal ko'rardilar. Haqiqatni – ya'ni kundalik, zamonaviy va ingliz haqiqatini emas, balki tarixiy va shotlandcha haqiqatni u o'z san'atining mavzusi qilib tanladi. U Edjuortga qarshi chiqmadi, balki o'z kuzatuvlari jabhasini kengaytirib, uni qonuniy ravishda to'ldirdi, xolos.

Shunday qilib, "romantik" atamasi Skott asarlarida bir necha, turli-tuman, ba'zan bir-biriga butkul zid tushunchalarni anglatadi.

Voqelik to'g'risidagi ushbu soxta tasavvurlar soxta zamonaviy adabiyotdan yoki boshqa davrlar adabiyotidan olingan. Bu ham mavjud holatni tushunmaslik va unga yetarli baho bermaslikdir. Bunday "romantika"ga Skott zaharxanda qilib, shu orqali adib keyin hayotdan "ko'zi ochilgan" o'zining yosh orzumandlarini sinovdan o'tkazadi.

Bunga shuningdek qalbni hayajonga soladigan peyzajlar, tog' daralari va qoyalari, qadimgi qal'a xarobalari – ko'hna "romantik" adabiyotda tasvirlangan

xavfli sarguzashtlar va allaqachon yo‘qolib ketgan odat va an’analar bilan bog‘liq har bir narsa hamdir.

Shu bilan birga, bu real mavjud yoki oldinroq mavjud bo‘lgan, boshqa – nisbatan tinch viloyatlar va davrlar aholisi uchun bo‘lishi mumkin emasdek ko‘ringan hayot ko‘rinishlari – shotland tog‘lik xalqining yoki XIV asr Yevropasidagi o‘rta asr odatlaridir.

Nihoyat, bu – alohida, “ritsarona”, ta’ma qilmasdan, ushalmaydigan bo‘lishiga qaramay o‘z orzusiga sodiqlik, har kungi tinch hayot bilan yashay olmaydigan insonning ma’naviy qahramonligi, fikr va ehtirolarining beqiyos yuksaklikka ko‘tarilishi, ammo bu hol uning o‘ziga o‘ta zararli, biroq insoniyat uchun ruhan zarur bo‘lgan o‘ziga xos munosabatlarning shaklidir. Bu kabi romantika Skottda hatto bunday munosabatlar belgilab bergan intilishlar befoyda bo‘lganida ham na zaharxanda, na nafrat uyg‘otmaydi.

Skott zamondoshlari bu so‘zga turli ma’no berganlar. “Romantik” romanlarni rad etib, Edjuortni ko‘klarga ko‘targan jurnal, shu bilan birga, ritsarlik, uning ideallari va romantikasini sharaflab, unda alohida, hozirda yo‘qolib ketgan, biroq ijtimoiy hayot uchun zarur fikr va sezgilar qatorini ko‘rib Servantesdan u kinoya qilgan Don Kixotni himoya qilib chiqqan edi. “Yangi romanchilik maktabi”ni targ‘ib qilgan barcha maqolalarda asosiy fikr nafaqat qahramonni, balki romanda hikoya qilingan voqealarning haqqoniy bo‘lishi talab qilingan. Eski maktabni o‘zining “sahna”dagi qahramonlari xulq-atvori, intilishlari, hatto ularni har burchak ortida kutib turgan sarguzashtlar sabablari ham qiziqtirmas edi. Eski mualliflarni ularni yaratga kuchlardan ko‘ra sarguzashtlarning o‘zi ko‘proq qiziqtirar, shuning uchun ular yuzadan yurib, “chuqur”ga kirmaslikka intilardilar. Hodisalar oqimi ostida qolgan kitobxon ularning paydo bo‘lishi va bog‘liqligi haqida o‘ylanib ham o‘tirmas, hamda o‘zi tekshirib ko‘ra olmagan narsalarni bo‘lishi mumkin deb hisoblardi. Barchasi taqdir taqozosi bilan, tasodifan ro‘y berib, sarguzashtlarni o‘ylab chiqarish san’ati voqea-hodisalarni tushuntirish, izohlash san’atiga nisbatan yuksakroq qadrlanardi. Skott, o‘zining “yangi maktab” bo‘yicha maslakdoshlari kabi o‘zgacha fikrda edi.

Kitobxon o'z qahramoni taqdiri va qilmishlari to'g'risida so'zlab berayotgan muallif so'zlariga to'liq ishonishi kerak. Kitobga qiziqib ketsa ham u mantiqiy fikrlash imkoniyatini yo'qotmasligi va har bir holda o'z sezgilari va hislari xususida o'ziga hisobot berib turishi shart bo'lgan. Buning uchun romanning syujeti xuddi qahramonning xarakteri kabi izohlab berilishi talab etilgan.

Jeyn Stin to'g'risidagi maqolada shakllantirilgan haqiqatga yaqinlik qoidasini Skott e'tibor bilan o'zining ilk romanida qo'lladi. "Ueverli"da tasodifan yoki o'z-o'zidan hech nima ro'y bermaydi. Asar qahramoni xizmat qilish uchun dragunlar polkiga kiradi – bu yaxshi oila farzandi bo'lgan yosh yigit uchun tabiiy hol. Ammo uning otasi va amakisi bunga kirishib, yigitchaga Shotlandiyada turgan polkdan unvon olib berishlari uchun bir qancha sabab va mushohadalar, sarsongarchilik va iltimosnomalar kerak bo'ldi. Ish aynan ana shunday bo'lganiga hech kimda shubha yo'q, chunki sabab va oqibatlar zanjiridan bironta ham bo'g'ini tushib qolmagan. Rechel xonimning mushohadalari ham vazirning fikrlari kabi ana shu natijaga erishshga ko'maklashadi. Chidamsiz kitobxonga ushbu bino poydevori tiklangan "yer ostidagi" qismi qiziq emas va ortiqcha bo'lib tuyulishi mumkin, ammo Skott undan bironta ham "g'ishtini" ololmaydi, chunki bunda "imorat" pishiqligiga putur yetib, u qulab ketishi mumkin. Ana shu "g'isht terish" uning uchun o'ta muhim bo'lib, asarning boshlang'ich boblari esa yangicha, u ochgan roman janrining estetik jihatlarini ochib berardilar.

Dastlabki kitobxonlar, Skottning do'stlariga, ushbu boblar juda zerikarli bo'lib tuyuldi. Urskin, Ballantayn shunday fikrlab, Morrit va boshqalar ham shu zaylda fikr yuritgan bo'lishi mumkin. "Men atayin birinchi jildni birmuncha zaif qoldirdim, - degan edi Skott ana shu e'tirozlarga javoban, - ammo ikkinchi va uchinchi jildlarida harakat va qiziqish ko'proq. Men birinchi tomni juda zo'r yozadigan romanchilarning odatiy xatosini takrorlamoqchi emasdim (qay darajadagi muvaffaqiyat bilan, yolg'iz xudoga ayon), xolos".

Albatta, bu so'zlarni jiddiy qabul qilish kerak emas. Skott dastlabki boblarni qisqartirishni xohlamagan va qisqartirilmadi ham, chunki ularsiz asar syujeti tushunarsiz bo'lib qolardi. Do'stlari va tanqidchilarning shikoyatlari ular

Skottning g'oyasini tushunmay, butun qoyil qolish va farxrlanish hislariga qaramay, undan eski romanlarida ko'nikkan narsalari: voqealarning ikkinchi betdan boshlanishini talab qilishardi. Biroq aynan zarur tayyorgarlik ko'rilmagani sababli keyingi voqea-hodisalar qiziq bo'lmay qolar – o'z romanining “zerikarli” birinchi tomini “qiziqarli” debochaga qarama-qarshi qo'ygan Skott aynan ana shuni nazarda tutgan edi.

“Gay Mennering” bilan ham xuddi shu holat ro'y berdi. Romanni qo'lyozma holida o'qib chiqqan do'stlari Skottga birinchi qism – astrologning Eleyen-gauenda paydo bo'lishi, goroskop () va voqea ishtirokchilari tavsifini olib tashlashini talab qildilar, ammo bu uning rejalariga mutlaqo muvofiq kelmas edi.

Skottning deyarli har bitta romani Angliyada, undan tashqarida ham yuqoridagi kabi e'tirozlarga sabab bo'lar, uning ko'plab davomchilari o'zining tarixiy hikoyasini uzundan-uzoq kirish qismi bilan “boshini og'ritmay”, “qiziqarli” tarzda boshlash usulini o'ylab topishga harakat qilardilar.

Skott ana shu ta'nalarni oldindan ko'ra bildi va “Ueverli”ning bosh qismidayoq unga bu “cho'zma”lar nima uchun kerakligini aytib berdi:

“Romandan faqat ko'ngilochar voqea izlaydigan kitobxonlardan ularni o'ziga qiziqishni yo'qotib ulgurgan siyosat, viglar, torilar, gannoverliklar va yakobitlar bilan qiynab qo'yganim uchun avvalo uzr so'ramoqchiman. Biroq aks holda men hikoyatim haqiqatga yaqinligini qo'yib turaylik, tushunish uchun noqulay bo'lib qoladi. Voqeani anglatish uchun men qahramonlar harakatining motivlarini tushuntirishim lozim, bu motivlarni esa, shak-shubhasiz, o'sha davrga xos his-tuyg'ular, bid'atlari va siyosiy e'tiqodlari keltirib chiqaradi. Men zaifligi va tabiatan sabr-toqatsizligi menga alohida da'vo-e'tiroz bildirish huquqini bergan sohibjamol kitobxon ayollarimizni ajdarlar qo'shilgan yoki sehrli kuch ta'sirida harakatlanadigan uchar aravaga taklif etolmayman. Men to'rt g'ildirakli kamtarona ingliz karetasida harakatlanib, qirollikning katta yo'llari bo'ylab safar qilaman. Kimga bu yoqmasa, marhamat, birinchi stansiyadayoq tushib qolishi mumkin”.

Zamondoshlari Edjuort romanlarida ham hech nima bilan asoslanmagan va izohlanmagan voqea-hodisalarni topganlar. Ammo uning ijodida xarakterlar kabi,

voqealarni ham haqiqatga o'xshatishga moyillik bo'lib, shu sababli Skott doimo unga murojaat qilib, uni misol qilib keltirardi. Ba'zilar "Ueverli"ni maqtay turib, uni G. Fildingning "Tom Jons"asariga qiyoslaydi. Bu baho naqadar xush yoqmasin, Skott uni adolatli deb topmadi. Ballantayn bo' haqida romanga yuksak baho bergan miss Edjuortga shunday deb yozadi: "Mister Genri Makenzi Fildingga o'xshashlik yo'q degan fikringizga qo'shiladi. Muallif, deydi u, hech qachon kitobxonga bu asar uydirma (o'y hosilasi) ekanligi hamda bu ichki ravshanlikka zid kelsa ham uning barcha ajoyib jonzotlari havodan yasalganligi to'g'risida eslatmaydi".

Bunda gap "Tom Jons"ning har bir kitobidan oldin kelgan debochalar haqida borayotgan bo'lsa kerak. Biroq. Ushbu romanning ichki ishonarli chiqqaniga qaramay, Skott uning voqealarini yetarlicha asoslanmagan, demak, yetarlicha haqiqatga yaqin emas deb hisoblagan.

Skott hayotning o'zi sanoqsiz tasodiflar zanjiri bo'lib, masalan, Breduordinlar oilasiga tushib qolgan Ueverli u yerda jozibali Rozani uchratishi va shu yerda qolib ketishi shart emas edi; xuddi shu vaqtda kateranlar molni olib qochib ketishlari va Fergyusning chopari Ueverlini toqqa sayohat qilishga taklif etishi ham zarur shart emas edi. Skott o'z romani syujeti erkinligi va real hayotda bari boshqacha tus olishi mumkinligini bilgan. Ammo u o'zi hikoya qilgan narsalar bo'lishi mumkingina emas, balki buning ehtimoli ancha baland. Ana shuning uchun kitobxon hamma voqea aynan shunday bo'lib o'tganiga, asl haqiqat xuddi shunaqa bo'lishiga aslo shubha qilmaydi. Romanning "realligi" qandaydir "mo'jiza" bo'lib tuyulib, "Ueverli"ni ilk marotaba o'qib chiqqan Xezlit bu to'qima emas, balki haqiqat deb o'ylagan: bunday asarni to'qib chiqarish mumkin emas.

Asar voqealarining haqqoniyligi hissini paydo qilish maqsadida Skott qator hodisalarni ustma-ust joylashtirib, ularning o'zaro "munosabatini" kuzatadi, ular ortidagi qonuniyatlarni ochib beradi.

Biz Ueverli bilan asar boshidayoq tanishganimiz uchun uning hodisalarga javoban harakatlari tabiiy va zarurat tufayli kelib chiqqan bo'lib tuyuladi. U o'z xulq-atvori, tarbiyasiga muvofiq ravishda ish ko'radi. Skott u "tabiiylik"

chegarasidan chiqib ketmasligini e'tibor bilan nazorat qilib turadi, chunki bu xususiyatni u romanning bosh qonuni sifatida ilgari surgan edi.

U bilan yuz beradigan hodisalar naqadar kutilmagan va g'aroyib bo'lmasin, biribir tabiiy va muqarrar bo'lib ko'rinadi, chunki ular uchun asarning oldingi qismida yaxshilab "poydevor" tayyorlangan. Ular rivojlanib borgan qonuniyatlar tizimi, qahramon xulqi kabi, kitobxonda biron-bir shubha uyg'otmaydi.

Biroq birdaniga Ueverli hayotida qandaydir tushunarsiz voqealar boshlanadi. U xat oladi, ammo unda nima bitilganini, xat ma'nosini umuman tushunmaydi. U o'zining farovonligiga xavf soladigan hodisalar to'g'risida xabar topib, so'ng unvonidan pastlatilishi, uni sotqinlikda ayblashlari... Hibsga olinish, so'roq, ozodlik, qochish, kulbada kun kechirganligi, da'vogar saroyiga kelib qolishi - bularning bari qandaydir sirli ko'ringani bilan bo'lib o'tayotgan voqea-hodisalarning tashqi ehtimoliyligi shubha ostiga olinmaydi.

Ueverli hayotiga kirib kelgan chalkashliklarni uning deyarli xabari bo'lmagan hodisalar bilan izohlash mumkin. Da'vogar Shotlandiyaga kelib tushib, Angliyani bosib olishga qaror qiladi. Fergys Mak-Ivor qirol zobitini o'ziga yollab olishni istaydi. Uning atrofida fitnalar qo'zg'alib, sirtmoqlar qo'yilgan. Shulardan biriga u tushib qoladi. Qaroqchi Bin Lin tavakkal qiladi va uning muhrini o'g'irlab, nomidan xat yozadi va dragunlar polkida qo'zg'olon ko'tarishga harakat qiladi. Ueverlini uni qo'riqlab olib ketayotgan otryad qo'lidan qutqarib olib qoladilar – buni Roza Breduardin tomonidan sotib olingan Bin Lin shaykasi amalga oshiradi. Ueverli taqdir uni doim "o'zgalar xohishiga bog'lab, o'z ixtiyori bilan harakat qilish imkonidan mahrum qilishiga" ajablanadi.

Kitobxon bu yerda chigal o'yin ketayotganini qisman anglasa ham, biroq uning tafsilotlari bilan keyinroq tanishadi. Voqealar muayyan vaqtga qadar sir bo'lib, uni Ueverli uzoq vaqt ocha olmaydi.

Bunday kompozitsiya Skott uchun alohida ahamiyatga ega edi. U kitobxon e'tiborini shunga jalb etadi. Qirq birinchi bob: "Sir ochila boshladi" deb nomlanadi. "Keyingi izohlar" nomli oltmish beshinchi bobda esa u aniq va ravon qilib kitobxonga qisman Janet, ko'proq o'z nomidan Rozaning Ueverli xalos

bo'lishidagi ishtiroki, Fergyusga Tulli-Veolanni "qizil mundirlardan" tozalash imkonini bermagan mamlakatdagi ahvol, Bin Linning roli va uning harakatlari motivlari xususida ma'lum qiladi. Avvaliga murakkab va tushunarsiz bo'lgan voqealar asar oxirida osonlikcha va mantiqan to'g'ri yechiladi.

Keyingi romanlarida Skott voqea-hodisalar sabab (motiv)lari personajlar ruhiyatidan tashqarida bo'lsa, ularni e'tibordan biroz chetda qoldiradi, har holda ular o'rtasida aloqadorlikni avvalgiday batafsil tushuntirmaydi. "Montroz haqida afsona"ni tugallar ekan, u hatto Ardenvor qasri merosxo'ri – Ennot Layl kelib chiqishining isbotini ham keltirmaydi, chunki "buning hojati yo'q". Fikrimizcha, barini to'liq tushuntirish unga u qadar muhim bo'li b ko'rinmagan. Bunda yirik, ahamiyatli hodisalar motivlarini keltirib, ularning o'zaro urf-odatlar, tarixiy qonuniyatlar va qahramonlarning ulkan niyatlari yordamida bog'liqligini asoslash talab etilgan.

O'z faoliyatining boshida, XVIII asr romantik romani bilan kurasha turib, Skott har bir voqea-hodisani haqiqatga yaqin qilib ko'rsatishni istagan bo'lsa, biroq motivlash tizimini yarata borib, u o'z dunyoqarashi, olamni va tarixni anglashiga mos keladigan boshqa fikrga keldi. Harakat, voqeani motivlash bilan Skott o'zga, yirikroq narsani nazarda tutadi. Bu yerda gap bir necha alohida hodisaning emas, balki umuman hayot umumiy birligi xususida bormoqda.

Skottdan avvalgi romannavislarda sabab-oqibat qatorlari odatda bir sathda joylashib, ular chuqur yotmaydi. Skottda esa ular jamiyatning barcha qatlamlaridan o'tadi. Biron bir qatlam ichidagi voqealarni uning chegarasidan chiqmay turib tushantirib berish mumkin emas. O'z saroyida bo'g'ib o'ldirilgan shahzodaning hayotini, yoki qirollikning eng chekka burchagida yashaydigan dehqon turmushini bayon etish uchun roman syujeti butun jamiyatni qamrab olishi kerak.

Shu tarzda voqea-hodisalar maishiy muhit chegarasini tark etib, butun boshli davlatni qamrab oladi va qahramon hayoti nisbatan umumiy ma'no kasb etadi.

2.2. Ueverli»,» Kventin Dorvard» va «Puritanlar» romanlarining badiiy talqini.

“Ueverli” romani voqealari XVIII asr o‘rtalarida ro‘y berishiga qaramay, u zamona hayotidan olingan roman sifatida fikrlangan edi. Bayon etish uslubiyoti, qahramon ruhiyati va hatto voqealarning o‘zi ham zamonaviylik, hech bo‘lmaganda yaqin oradagi o‘tmish taassurotini hosil qilardi. Skott yuksak mahorat va iliqlik bilan zamonaviy olamni hamda uning xavfu-xatarlari ichra rivoj topgan ma’naviy shaxsni tasvirlagan ayol yozuvchilar an’anasini davom ettirdi.

Ana shu yarim asr avvalgi zamonaviylikka tarix qadam bosdi. U Shotlandiya tog‘ va tog‘oldilarida yuz yillab davomida saqlanib qolgan milliy qadimiyat sifatida kirib keldi. Bu ingliz adabiyotiga ko‘pdan beri va yaqindan tanish, ammo “zamonaviy” roman tomonidan buzib ko‘rsatilgan “odatlar” va “arxeologiya” edi.

Skott estetikasining bosh qonuni – haqiqatga yaqinlik – tarix talab etardi. U birinchi navbatda voqealar, ya’ni qahramon qilmishlari va uning shaxsiy hayoti hodisalarining izohi sifatida kerak bo‘lgan. Shotlandiyadagi 1745 yil siyosiy voqealari va ma’naviy ahvolini chuqur tahlil qilmay turib mazkur syujet o‘xshashligiga erishib bo‘lmas edi. Romanini haqiqat bilan boyitish maqsadida Skott nafaqat arxeologiya va eski tarixiy roman vositalari bilan tiklangan, balki zamonaviy hayotdan olingan psixologik roman vositalari yordamida olingan tarixga to‘ldirishi kerak bo‘ldi.

O‘zining ilk romanlarida Skott atayin qilganday, shaxs taqdirining siyosiy voqealarga bog‘liqligini bo‘rttirib ko‘rsatadi.

Ueverli taqdirini g‘alati deb aytish mumkin. Unga laganbardorlik qiladilar, u bilan o‘ynaydilar, uni nimadadir ayblaydilar. Bu Fanni Verney, Edjuort yoki Ostinning zamonaviy romanlaridan birida ro‘y berganida edi, buning sabablari birmuncha sodda bo‘lardi, ya’ni: biron-bir xolaning salbiy munosabati, oshig‘ining yopishqoqligi, yoki biron kimsaning homiyligi. Hodisalar bundan

ham sodda yo‘ldan ketishi mumkin edi: qahramon ayolimiz qalbining eng ajib fazilatlarini, kamtarligi, topqirligi, hurmati va vafodorligini namoyon etishi uchun zarur tasodiflar yig‘indisi, xolos.

Xo‘sh, Morrison Osbaldistonni talonchilikda ayblash, Diana Vernayaga esa uni himoya qilish nima uchun kerak bo‘ldi? Ko‘plab odamlar ishtirok etgan fitna, hamda siyosiy shart-sharoit bo‘lmaganida Frensis o‘z umrini oilaviy qal’asida o‘tkazar va uning hayoti ham o‘zgacha ko‘rinish olardi. Biroq u tarixiy hodisalar girdobiga tushib qoldi va endi aynan ular qat’iy zarurat bilan uning taqdirini belgilab bermoqda.

Bu syujet Skottni shunchalar lol qoldirgan ayol yozuvchilar qo‘liga tushsa, sabab(motiv)lar Reshli qutqulari va Diana Vernonning unga qarshi kurashi bilan cheklanardi, xolos. Ammo ana shu qutqular uch shaxsdan ortiq odamni qamrab olmas, butun mamlakat taqdiriga ta’sir etmas va mamlakat taqdirida u qadar aks etmay, shunchalik muqarrar bo‘lmas edi.

Siyosatga umuman hech qanday aloqasi bo‘lmagan miss Vir (“Qora mittivoy”) taqdiri otasining siyosiy fitnalari to‘riga tushib, u o‘zi istamagan nikohdan faqat qo‘zg‘olon ro‘y bermagani tufayligina saqlanib qoladi.

“Redgontlet”da yuzaga kelgan vaziyat ham bir qadar “Ueverli” va “Rob Roy”ni eslatadi. Bu yerda ham qahramonning shaxsiy hayoti uning o‘zi umuman tasavvurga ega bo‘lmagan siyosiy ishlarga aralashib qoladi.

“Puritanlar”da ushbu aloqa nisbatan ongli va uyg‘un bo‘lib ko‘rinadi. Butun mamlakat ikki dushman lagerga bo‘linib, bu holda betaraf bo‘lib qolish mumkin emas. Genri Morton so‘zsiz, o‘zi bundan bir necha soat avval hech narsa bilmagan voqealar girdobiga tushib qoladi. U qo‘zg‘olon ko‘targan mutaassiblarga yon bosmaydi, lekin yuzaga kelgan sharoit uni shular tarafini olishga undaydi va u adolatli bo‘lish maqsadida ularga qo‘shiladi. U o‘z taqdirini o‘zi belgilasa, uning boshqa lagerda bo‘lgan sevgilisi, istar-istamas hodisalar qurboni va ularning ishtirokchisiga aylanadi.

Shotlandiyaga kirib kelayotgan reformatsiya tobora aholining yangi qatlamlarini qamrab ola boshladi. Ingliz tiliga o‘girilgan Injil saroy va

kulbalarga kirib borib, voizlar ommaning eng omi qismi orasida ham shubha uygʻotib, ularni junbushga keltirib ulguradilar. Ana shu hodisalar boy abbatlikka tegishli Glendeargga ham yetib kelgani va diniy ishlarga oʻralashib qolgan ingliz ritsari Shotlandiyaning togʻ daralarida yashirinishga majbur boʻlishining ham ajablanarli yeri yoʻq. Ana shunday bir gʻala-gʻovur davrda qiziqqon Xelbert Glendinning kutilmaganda ulkan voqealarda ishtirok etib, jamiyatning yuqori pillapoyasiga koʻtarilib olishi ham tabiiy boʻlib tuyuladi (“Monastir”).

Kventin Dorvard, Ueverli va Osbaldiston kabi kelgindi sifatida oʻzga yurtga tushib qoladi va u yerda koʻp narsalarni boshidan kechiradi. Oʻzidan nafratlangan fuqarolaridan qochib, ulardan ayyorona inshootlar orasida jon saqlayotgan Lyudovik XI ning shotlandiyalik tan soqchisi boʻlgan Kventin grafinya Izabellani qirol tomonidan qoʻyilgan barcha tuzoqlardan omon olib oʻtib, oldidagi vazifani uddalaydi. U oddiy askar va yirik siyosiy voqealarning guvohi va ishtirokchisi boʻlish bilan birga oʻziga yuklatilgan vazifalarni sidqidildan ado etadi. U oʻz aqli va ishlari bilan mamlakatni Lyudovik XI ning ayyorligi va Jasur Karlning aqlsizligi olib kelgan jar yoqasidan qutqarib qoladi.

Kventin bironta ham partiya aʼzosi emas va u fitna va qutqular, jangu-jadal va qotilliklar zamonida oʻzining jangchi va tan soqchi vijdonini pok saqlashni oʻylaydi, xolos. “Abbat”da oshiq-maʼshuqlar chidam va sabotliligi bilan qirolichani asrab qoladilar: Ketrin Siton – oilaviy anʼanalariga rioya qilib va shaxsiy sadoqati, Roland Greym esa mahbus ayolga rahmi kelgani va Ketringa boʻlgan muhabbati tufayli bu ishga qoʻl uradilar. Ularning har ikkisi voqealar markazida, Loxlivendagi qutqaruvchilarning kichik bir guruhida edilar. Ularning hayoti va faoliyati siyosiy voqealar qonuniy boʻlishiga qaramay, har holda bir qadar tasodifiy inʼikosini topadigan chekka tumanlarda kechmaydi. Ular tom maʼnodagi tarixiy shaxs boʻlmasalar ham, oʻzlari ana shu voqealarni belgilab boradilar.

Ayvengo – qirolning eng yaqin maslakdoshi. Uni masʼuliyatli kunlari turnirda jang qilishga majbur qilgan nodonligi va ana shu jangda olgan jarohatlari hodisalarda ishtirok etishiga yoʻl qoʻymaydi. U birinchi oshiq, shu

bilan birga siyosiy arbob hamdir va uning xususiy hayotini mamlakatda sodir bo'layotgan jarayonlardan alohida ko'rib bo'lmaydi. Uning Rovenaning Roza, Kventinning Izabella va Nortonning Edit bilan nikohlari kabi siyosiy vaziyatga bog'liq, ammo endilikda uni siyosiy voqealarning inson hayotida aks etishi deb bo'lmaydi. Ana shu nikohning o'zi siyosiy qadam, ikki dushman tarafning yanada kuchliroq yovga qarshi mamlakat manfaatlari yo'lidagi ittifoqidir.

Skott va u yaratgan janrni doimo "manfaatlar bo'linishi"da ayblashgan. Ikki, ya'ni siyosiy va shaxsiy, tarixiy va romantik qismlarga bo'lingan roman kitobxon e'tiborini ikkiga bo'lib, bu bilan uni bo'shashtirgan. Qahramonning shaxsiy hayoti tafsilotlariga berilib ketgan kitobxon muntazam ushbu qiziqish yo'lidan chekinib, o'zicha qiziq bo'lgan boshqa, ya'ni siyosiy tarafiga o'tib, vaqtincha birinchi qism to'g'risida unutishga majbur bo'lardi.

Ayniqsa "Kventin Dorvard" ko'plab tanqidga uchradi. Lyudovik Peronnaga kelishi bilan Kventin e'tiborimizdan yo'qoladi va har ikki hukmdor o'zaro bitimga kelishib, Lyejni qamal qilgani yo'l olganidan so'ng paydo bo'ladi. Ammo bu bosh qahramon tarjimai holi syujet rivojining siyosiy yo'lidan chetlashgan Skott ijodidagi yakkayu-yagona hol bo'lsa kerak. Odatda bu ikki yo'l shu qadar uyg'unlashib ketganki, e'tiborning chalg'ishi to'g'risida so'zlash ortiqcha. Skottning deyarli har bir romanidagi kabi hodisa yuz beradi: e'tibor bir yoki ikkitagina emas, balki bir necha obyektga jamlangan.

"Ayvengo"da kitobxon qiziqishi bir qahramondan ikkinchisiga – Ayvengodan Sedrikka, Loksliga, Qora ritsarga, Tuk og'aga, Brian de Buagilberga, Revekkaga ko'chib yuradi. Voqealar bir vaqtning o'zida bir necha joyda yuz berib, kompozitsiyaning o'ta yaxlit fikrlanganiga qaramay, Qora ritsar Tuk og'a bilan ziyofat qurganida hech kim ledi Rovenani o'ylamaydi, Atelstanni dafn etayotganlarida Revekka ongimizni butunlay tark etadi, tangri sudi vaqtida esa hayolga na Fron-de-Bef, na Rufida, na cho'pon Gurt va na masxaraboz Vamba keladi.

Jini Dins u Effini qutqarish uchun avf so‘rab Londonga sayohat uyushtirganida kitobxon o‘lim xavfi ostida qolgan ana shu Effini ham yodidan chiqaradi. Kapitan Dalgetti gersog Argaylning yer osti zindoniga tushib, u yerdan Ranald Mak-If bilan qochganida biz Ranald aynan u to‘g‘risida Argaylga hikoya qilib bergan Ennot Layl haqida qayg‘urmaymiz (“Montroz haqida afsona”). Ikki urug‘ o‘rtasida to‘qnashuv yuz berganida, kitobxon Folklend qal’asida ro‘y bergan fojea, hamda Genri Smit aynan uning uchun jangga kirganini ko‘ra-bila turib, Ketrin to‘g‘risida ham unutadi (“Pert go‘zali”).

Skottning istalgan romanidan ko‘plab shu kabi misollar keltirish mumkin. Bu holat tanqidchilarni Skottning asosiy kamchiligi deb qabul qilinishining sababi ular bu qadar ko‘p rejali romanga ko‘nikmagan edilar va fransuz klassik teatriga o‘rgangan SHekspir tomoshabini dovdiragani kabi ko‘p sonli shaxslar, ssena va “manfaatlar” qarshisida o‘zlarini yo‘qotib qo‘yardilar.

Syujetning tarixiy yo‘nalishi Skott asarlarida kamdan-kam hollarda boshqa – sevgi, xususiy yoki o‘ylab chiqarilgan yo‘nalishga qarama-qarshi qo‘yiladi yo ajratib qo‘yiladi. Shu sababli bu yerda “ikkiga ajralgan” manfaat emas, “ko‘plab” manfaatlar haqida gapirilsa, to‘g‘riroq bo‘ladi. Skott faqat bir guruh personajlar bilan cheklanib qolmaydi. Deyarli har vaqt bir necha guruh lar ishtirok etib, ular biron-bir qahramon atrofida jamlanadilar, ba’zan esa ko‘p a’zoli jamoaviy personaj kabi harakatlanib, markaziga ega bo‘lmaydilar.

Bu manfaatlar turli-tumandir. Temirchi Genri, Ketrin, tog‘lik urug‘, gersog Rotsey, qirol va qisqa, ammo aniq va lo‘nda ta’rif berilgan o‘zga personajlar har biri o‘ziga turlicha munosabat talab qiladi.

Albatta, bu va yana boshqa romanlarda ham kitobxonda keskin ijobiy, yo aksincha, salbiy munosabat uyg‘otadigan qahramonlar ham bor. Biroq Skottda bu ziddiyat gotik roman yoki melodramadagi kabi ochiq-oydin emas. Chunki u o‘z oldiga bunday vazifa qo‘ymaydi. Unda hatto o‘zaro zid ruhiy xususiyatlar, yoki xulq-atvorga ega personajlar ham bor – masalan, jasur va qo‘rqoq, fidokor va xudbin, jiddiy va yengiltak va h.k. biroq ularni qiyoslash yoki qarama-qarshilash uchun ularga nisbatan kuch ishlatish, ya’ni biron sifatini olib tashlab,

boshqa fazilatlarini e'tiborsiz qoldirish kerak. Aksariyat hollarda bunday qarama-qarshiliklarning imkoni yo'q va unday qilish g'arazli maqsadi bo'lmagan kitobxon hayoliga kelmaydi ham.

Personajlar xilma-xilligi shundaki, ulardan har biri kitobxon qalbidagi alohida torni chertib, o'zgacha hayollar keltirib chiqaradi. "Jasur" temirchi Genrini "qo'rqq" Konaxarga, yoki "mehribon" Ketrinni "johil" Dvayningga qarshi qo'yish to'g'ri bo'lmaydi. Bu kabi qarama-qarshiliklar sun'iy ko'rinish olib, chunki ushbu mavhum sifatlardan tashqari har bir personajda yana ko'plab boshqa, muhim fazilatlar bor. Qahramonlar xulq-atvori shunday izohlanadiki, ularning u yoki bu xususiyatini ajratib olib, atrofdagi g'shert-sharoitdan alohida ko'rib chiqishning iloji yo'q, chunki bu asarning badiiy to'qimasini va yaxlitligini buzadi. Qahramonlar umumiy ahamiyatga ega bo'lgan u yoki bu ma'naviy-ruhiy muammoni o'zida aks ettirishiga qaramay, ular chuqur individuallashtirilgan deyish mumkin. Kitobxon qahramon haqida uning barcha uzviy xislatlari yig'indisiga ko'ra fikr yuritadi.

Skott asarlarida ana shunday izohlangan, individuallashtirilgan, ma'no va mohiyatga boy personajlar ko'pligini faqat bir guruh kam ma'noli personajlar birgina, asosiy qahramon soyasida qolib ketgan romanni to'g'ri deb topilgan holdagina xato deb aytish mumkin. Ushbu "monarxik" tamoyilni Skott nisbatan murakkab va og'irroq, lekin XIX asr fikrlashiga yaqinroq "respublikacha" tamoyil bilan almashtirdi. Ana shu alohida manfaat va harakat yo'nalishlari murakkab sozlangan, faqat o'zigagina xos bo'lgan qonunlarga binoan rivojlanadigan asarni tashkil etadilar.

1814 yili, vaqtincha "Ueverli" ustida ishni to'xtatib, Skott o'z noshirining iltimosiga binoan fransuz va ingliz dramatik tizimi to'g'risida "Dramaga oid tajribalar" asarini yozdi. Uning dramatik kompozitsiyaga qarashlari bu to'g'rida o'sha davrning ingliz va nemis tanqidchilari fikriga mos kelgan.

U harakat, voqealar yaxlitligini dramatik kompozitsiyaning asosiy va yagona qonuni deb hisoblaydi. "Bitta, qat'iy markazlashtirilgan manfaat, qolgan barcha mayda-chuyda epizodlarni o'ziga bo'ysundirib, asarning markaziy

yoʻnalishi boʻlib oʻtishi, kichik epizodlar, oʻz oʻrnida, uning qiziqroq boʻlishiga xizmat qilishi zarur. U pyesa bilan birga boshlanib, u bilan birga rivojlanishi, to uni tugallaydigan yoki hal etadigan falokatga yetib kelmaguncha doimo koʻz oʻngimizda va harakatda boʻlib turishi shart”. Voqeaga aloqasi boʻlmagan epizodlarni faqat qahramon chiroyli soʻzlarni ayta olishi uchun kiritish mumkin emas. Ayniqsa, asosiysidan alohida, oʻzga bir manfaatni qoʻshish juda qoʻpol xato boʻladi: u butun pyesa taassurotini kamaytirib, “biron hayvonni quvlab borayotgan itlar toʻdasi qarshisida yangi obyektning paydo boʻlishi xalal bergani” kabi tomoshabinlar eʼtiborini chalgʻitadi (MW, IV, 358).

Bu Aristotel qonuni boʻlib, fransuz klassitsizmiga qarshi chiqqan biror tanqidchi ham inkor qila olmagan. Biroq ushbu qoida iqtidor faoliyatini boʻgʻib, uning erkinligi oyogʻiga bolta urishi kerak emas. Shoirlar klassik teatrning oddiy shakllarini takrorlashtarini talab etish notoʻgʻri. “Yangicha qarashlar sahnani nisbatan kengroq tasvirlar uchun ochib, ular shu bilan birga ijrochilar xilma-xilligi va epizodlar boyligi oqibatida detallarga boyroqdir. Ana shunday dramalar alohida, faqat ularga xos voqea birligiga ega va u boshqa harakat, voqealar ustidan hukmron boʻlib, ularning har birini oʻz tarkibiga oladi”.

Ushbu asosiy voqea boshqa manfaat va voqealarni istisno etmaydi: “U eman kabi boshqa, maydaroq oʻsimliklardan balandda turadi, biroq u oʻzi soya solib turgan butalar mavjudligi va yaqinligidan kamayib qolmaydi”. Aksincha, xuddi shu maqsadga intilib, asosiy manfaatdan chalgʻitmaydigan qator voqea-hodisalar oʻzining xilma-xilligi va muntazamligi bilan asosiy voqeaga eʼtiborni yanada jalb etadilar, xolos.”

Nafaqat SHekspir pyesalari, balki Skottning romanlarining kompozitsiyasi aynan shunday – keng, erkin, sahnalarga toʻla, birgina asosiy manfaat atrofida jamlangan, har bir romanning oʻz, alohida qonunlarga boʻysungan, barcha detal va “sir”lari bilan shu yakkayu-yagona gʻoyani yoritishga qaratilgan.

Kompozitsiya soddaligi hodisalar ozligida emas, balki ularning muntazamligi va shubhaga oʻrin qoldirmaydigan mantiqidadir. Shu tufayli murakkab kompozitsiya ham soddaga boʻlishi mumkin. Skott romanlari esa asosiy

voqeaga deyarli bog‘lanmagan hodisalar “uyumi” boshqa qonunlarga bog‘liq bo‘lib, o‘zga maqsadlarni ko‘zlagan XVIII asr romanlaridan aynan shu jihati bilan farqlangan.

Skott romannavis sifatida ko‘pincha voqealarning umumiyliigi, majmualari xususida fikrlab, alohida vaziyat va holatlardan ko‘ra umumiy manzaradan kelib chiqqan, albatta. “Ueverli”da antiqa odatlar va sivilizatsiya muhitida paydo bo‘ladigan qo‘zg‘olonni ko‘rsatish Skottning bosh maqsadi edi. Atrofidagi voqelikdan ajablangan yigitchaning tarjimai holi ana shu g‘oyani amalga oshirish vositasi bo‘ldi, xolos. O‘z romanlarining kelib chiqishi haqida gapirar ekan, Skott doimo o‘zi tasvirlashni istagan davr va urf-odatlar to‘g‘risida eslaydi. “Puritanlar” asarining kirish qismida u qabristonda tentirab, kovenanterlar qabr toshlaridagi yozuvlarni tiklab yurgan mo‘ysafid haqida hikoya qiladi. Demak, u o‘z romanini bosh qahramon tarjimai holi sifatida emas, balki ular keltirib chiqarishi kerak bo‘lgan voqea-hodisalar va muammolar majmui sifatida rejalashtirgan. “Ayvengo” normannlar bosqini manzarasi va ikki xalqning alohida shaxslar taqdiri orqali ifodalangan yarashishi sifatida o‘ylangan bo‘lib, buni asarning kirish qismidan ham bilish mumkin. “Pertlik sohibjamol” tarixiy xotiralarga to‘la peyzajdan, o‘zini qirol saroyiga qarshi qo‘ygan qadimgi shahar obrazidan, hamda ikki tog‘lik urug‘ kurashining tarixiy fojeali tugashidan yuzaga kelib, Skott bu to‘g‘rida tez-tez eslab turardi.

Alohida shaxslar hayotiga oid hodisalar ko‘p hollarda Skott tasavvurida yashagan tarixiy hodisa yoki davr tomoshasi mahsuli sifatida paydo bo‘lardi. Favqulodda siyosiy vaziyatda o‘zining ma’naviy o‘sishi masalasini hal qilgan yigitcha, Richardning Falastindan qaytishida sakslarning asirga tushib, so‘ng ozod bo‘lishi, Richard boshchiligidagi salb qo‘shinlari va Salohiddin rahbarligidagi arab dunyosining o‘zaro munosabatlari, demokratik ommaning o‘z huquqlaridan mahrum bo‘lgan merosxo‘r taqdiridagi ishtiroki – ushbu manzara-obrazlar va tarixiy muammolar xuddi qadimiy ramzlar asotirga aylanib borgan kabi syujet tarkibiga kirib keldi. Davr fonida harakatlanayotgan massa ichidan alohida shaxslar ajralib chiqib, o‘zaro kasb-hunarga oid aloqalar,

dushmanlik yo rashk tufayli bog‘lanib, voqealar tarixiy shart-sharoit ko‘rsatib bergan o‘zandan davom etadi.

Voqea-hodisalarning umumiy chizgilarini odatda tarixiy hodisalar belgilab beradi. “Ueverli” voqealarini ham qo‘zg‘olon boshlanishi, uning vaqtincha tantana qilib, so‘ng mag‘lub bo‘lishi va undan keyingi quvg‘inlar aniqlab berdi. “Puritanlar”ning syujeti ham shu kabi belgilab berilgan edi: Loudon-xilldagi to‘qnashuv, leyb-gvardiyachilarning tor-mor keltirilishi, so‘ng qo‘zg‘olonchilarning Bosuel-brijda mag‘lubiyati va shundan keyingi ro‘y bergan sud va qatllar. “Rob Roy”ning syujetini asosiy qahramonning tarjimai holi asosida o‘ylab topish qiyin bo‘lmadi: uning qo‘zg‘olondagi ishtiroki, harbiy to‘qnashuvlar, asirlik, asirlikdan qochish. “Abbat” – Mariya Styuartning Loxlivendan qochishi hikoyati bo‘lsa, “Kventin Dorvard” – Peronda bo‘ilb o‘tgan visol onlari tarixidir. “Montroz afsonasi”, “Kenilvort”, “Tumor”, “Vudstok”, “Pertlik sohibjamol”, “Anna Geyyer-shteyn” haqida ham shunday deyish mumkin.

Ammo bu voqealarning eng umumiy chizgilari, uning yo‘nalishi, xolos. Qolgan barisi badiiy to‘qima. Skott tomonidan voqeani yurgizadigan vositalar, intriga va uning qonuniyatlari ham o‘ylab topilgan.

Papalar fitnasi Brijport va Peveril orasidagi konfliktning tarixiy sababi bo‘lishi mumkin edi. Ziddiyatning o‘zi birmuncha haqiqatnamo bo‘lishiga qaramay, tarixda hech qanday manbaga ega bo‘lmay, Kristian olib borayotgan fitna esa boshidan oxirigacha Skott tomonidan o‘ylab chiqarilgan.

Skottning deyarli har bir romanida o‘zining makkori, fitnachisi bor. Ularning faoliyati odatda hayotning normal kechishiga va uning o‘ziga xalal beradi, biroq ana shu ayyor, johil yoki bashoratchilik qilmoqchi bo‘lgan ko‘ngli yumshoq odamlarning xususiyati ana shunaqa. Ueverlini qo‘zg‘olonda ishtirok etishga jalb etib, roman voqealarini belgilab beradi. Roza Breduordin Bin Lin yordamida taqdiri syujet chizig‘ini tashkil etgan qahramonni qutqaradi va Bin Lin uni obro‘sizlantirib, bu bilan sotqinlikka yetaklaydi. Salohiddin Kennetni o‘limdan qutqarib, to Richard bilan baxtli yarashuviga qadar uning taqdirini o‘z

qo'lida tutib turadi ("Tumor"). "Kenig-vort"dagi Varni, "Kventin Dorvard"dagi Lyudovik XI, "Sent-Rokan suvlari"dagi Eterington, "Qaroqchi"dagi Norna, "Anna Geyyershteyn"dagi graf Geyyershteyn, "Rob Roy"dagi Redgontlet va Reshli, "Abbat"dagi Magdalen Greym – bari ana shu ko'rinishdagi personajlardir. Ularning fitnalari aksariyat hollarda muvaffaqiyatsiz tugasa ham, biroq ularning qora niyatlarini bartaraf etish, shuningdek ularning hayotga qarashlarini o'zgartirishdan iborat bo'lgan romanning syujetini yaratadi.

Skott fitnachilarni, hatto ular kerak emas kabi tuyulgan holatda ham syujetga kiritadi. Kampo-Basso, Jasur Karlga yollangan kondotyer, uning aqlsiz siyosatining muqarrar inqirozini ko'ra turib, uning dushmanlari tomoniga o'tib ketadi va Karlni mag'lub etishga ko'maklashadi ("Anna Geyyershteyn").

Siyosiy fitnalar hayotiy va maishiy fitnaga aylanib ketadi. Ba'zan ulardan biri qayerda tugab, ikkinchisi boshlanishini anglash qiyin. Bin Lin, so'zsiz, siyosiy o'yin olib boradi, ammo u shu darajada mayda bo'lib, oddiy xususiy ishga o'xshab ketadi. Norna shaxsiy va oilaviy manfaatlarni ko'zlab ish tutganga o'xshasa ham, biroq buning ortida u Mnenni ishontirgan milliy ozodlik g'oyasi turadi. Hayriddin Mag'ribin – siyosiy agent, ammo uning Kventinga nisbatan faoliyati butunlay o'zgacha ma'noga ega. Fitna ijtimoiy voqealar bilan bog'liqligi yoki butkul xususiy hayot sohasiga oid ekanidan qat'i nazar, Skottning bironta romani usiz kechmaydi va asarlarning har birida u konstruktiv rol o'ynab, odamlarning xususiy ishlarini siyosiy voqealarga ulab beradi. Buni ayniqsa "Peveril Pik"da aniq namoyon bo'lib, unda Kristian "papalarning buyuk fitnasi yordamida o'zining shaxsiy "o'yini"ni amalga oshiradi".

Muallif qahramon va uning fikrlariga xayrihoh bo'lishiga qaramay, bu uning emas, balki qahramonning o'ylari. Bu navbatdagi bobning boshida tasdig'ini topadi:

"Charchoq va bezovtalik bilan kurashib yengilgan Julian oilasining dushmanlari uyida asir sifatida uyquda yotarkan, omad uni ozodlikka chiqarishga tayyorlardi. Buni amalga oshirish uchun u biroz g'alatiroq vositachilarni

tanlagani sababli u bu gal ham ushbu vazifani ado etishni Debora Debbichga topshirdi”.

Debora Debbichga kelsak, uning aralashuvi oldindan ko‘ra bilish mumkin bo‘lgan qonuniyat bo‘lib chiqdi. Missis Debbich Peverillarning qari xizmatkori bo‘lib, u Brijportga o‘tish maqsadida ularni tark etadi. Jonajon yurtiga qaytib, u o‘zining eski qadrdoni va uning o‘zi bir vaqtlar boshini aylantirgan o‘g‘lini ko‘rgisi kelib qoladi. Peverillarning ana shu sodiq xizmatkorlariga tashrif buyurib, u bo‘lgan voqeani ularga aytib beradi va Lans Utrem o‘zining yosh xo‘jayinini uning yerlarida ishlaydigan ko‘p sonli ishchilar yordamida bo‘shatishga qaror qiladi.

Kutilmaganda bir necha sabab-oqibat saflari o‘zaro kesishib, riyokor Kristianning o‘ta nozik hisob-kitoblari, rejalari chippakka chiqdi. Peveril taqdiriga bog‘liq hodisa, tasodif, yoki yangicha qonuniyat – inson nuqtai nazariga bog‘liq ravishda turlicha ataladigan reallik aralashdi. Skottda tasodiflar tez-tez, hatto keyingi romanlarida avvalgilariga nisbatan ko‘proq uchraydi. Buning na shoshqaloqlik bilan, chunki u doimo tez yozardi, na charchoq, na ijodiy kuchlari tushkunligi bilan izohlash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Tasodiflarga uning eng sara – “Kenilvort”, “Kventin Dorvard” va “Ana Geyyershteyn”da ham duch kelamiz. Bu o‘z falsafiy va badiiy mazmuniga ega bo‘lgan ijodning shunchaki shakllaridan biri, xolos.

“Redgontlet”da, faqat romanning boshi emas, oxirida mehmonxonada barcha ishtirokchilar: qo‘zg‘olonda qatnashgan yakobitlar, amakisi olib kelgan Darsi Letimer, sayyor musiqachi – kvaker Joshua Geddes, do‘stini izlayotgan Allen Feyrford, advokatini qidirayotgan Piter Piblz, o‘z onasining qotilini topgan Nenti Yuart, xullas, taxt da’vogaridan boshqalari uchrashadilar. Ushbu personajlardan har biri u yoki bu maqsadda, alohida sabablar ta’sirida, o‘z hayoti va shart-sharoitlarga bo‘ysungan holda bu yerga keladilar. Ammo mazkur xususiy qonuniyatlar o‘zaro bir-biri bilan sabablar yordamida bog‘langan va bir qarashda tasodif bo‘lib ko‘ringan uchrashuvlarda tasodifiy hech nima yo‘q. “Ana Geyyershteyn”da ham tasodif katta rol o‘ynaydi, biroq bu yerda uning mazmun-

mohiyati o'zgacha. Masalan, Lankasterlik Margaritaning qimmatbaho durlari (jemchuga) saqlanadigan, yo'qotilgan, yana topilgan, tortib olinib, ko'p sarguzashtlardan keyin haqiqiy egasiga qaytarilgan qutichaning ajoyib tarixi ham ana shunday. "Kventin Dorvard"da ham tasodiflarni uchratamiz.

"Vudstok"da ko'plab syujet burilishlari ham qahramonlar, ham kitobxonlarga kutilmagandek ko'rinadi. Kromvelning Vudstok bog'ida paydo bo'lishi qasr ahli uchun kutilmagan hol bo'lib, uning tashrifi protektorning yashirin ayg'oqchisi – Tomkinsdan olingan ma'lumot bilan bog'liq. Tomkinsning o'ldirilishi barcha uchun, hatto qotillikka qo'l urgan Joselin ham kutilmagan hol bo'lib chiqdi. Biroq "avliyo"ning Fibiga uzoq vaqt tegajoqlik qilishi, ularning buloqboshida uchrashib qolishi, qochayotgan qizning qichqirig'i, Joselinning gavron bilan paydo bo'lishi, olishuv va qotillik – bularning barida asossiz biron narsa yo'q. Har bir qilmish, uchrashuv va voqea chuqur o'ylangan va tarixiy hodisalar, shart-sharoitlardan kelib chiqadi. Hammasi bo'lib o'tganidek ro'y berishi kerak edi. "Vudstok" va "Kenilvort" turlicha fikrlangani ayon va "Kenilvort"dagi tasodifiy uchrashuvlar "Vudstok"da noo'rin bo'lib ko'rinar edi. ushbu romanda Skott o'z oldiga Rochklifning barcha g'arazli niyatlarini birma-bir va uzil-kesil barbod etish vazifasini qo'ydi. "Kenilvort"da esa tasodiflar o'yini yengiltaklik bilan muhabbatini saroy fitnalari ummoniga g'arq qilgan ikki oshiqni halok etishi lozim edi.

«Siz baxtga ishonasizmi? — deb savol beradi xonavayron bo'lgan dvoryanin o'zini kasodga qilgan savdogarga. — Mening o'zim baxtga, qarta o'yinidagi omad va omadsizlikka ishonaman». Savdogar unga oqillik bilan quyidagicha javob beradi: «Bugun qartani qo'lingizga umuman olmaganingizda omadingiz ko'proq yurishardi». — «Gap bunda emas, — javob qaytaradi yigitcha va qo'yilishining o'zi tasodifni tag-tugi bilan inkor etadigan nisbatan jiddiyroq masalaga o'tadi. — Meni endilikda faqat biz, ya'ni sent-ronanlik lordlarni, mana yuz yildan uzoqroq vaqt davomida ta'qib etib kelgan omadsizliklar masalasi....» («Sent-Ronan suvlari»). ushbu omadsizliklarni lordlarning o'z harakatlari keltirib chiqarib, ular doimo kelajagi bo'lmagan va

mamlakat manfaatlariga zid yo‘l tutgan tomonni himoya qilar edilar. Jon Mokbreyning o‘zi, sent-ronanlik so‘nggi lord, omadi chopganligi sababli emas, balki yengiltak yigitchaning taqdiriga ko‘z-quloq bo‘lib turgan lord Eteringtonning ixtiyoriga binoan ba‘zan yutqazib, ba‘zan g‘olib chiqadi.

Shunday qilib, Skott tasodifni o‘z sabablar tizimi tarkibidan chiqarib tashlamaydi. Muallif unga hatto ozgina erkinlik beradi, chunki uning aralashuvisiz oddiy, kundalik hayot mazmunini tasavvur etish qiyin. Shunga qaramay, tasodif voqea-hodisalar kechishini muvofiqlashtiradigan nisbatan kengroq qonuniyatlarga bo‘ysunadi; u taqdirning umumiy manzarasini buzmaydigan, balki inson irodasining kuchi yetmagan bo‘shliq, makonlarni nozik naqshlari bilan to‘ldiradi, xolos. Iroda taqdir ko‘rsatmalariga naqadar keskin qarshi borsa, ushbu makonlar shunchalik keng joy egallaydi.

Turli guruhga oid personajlar o‘rtasida yuzaga keladigan o‘zaro harakat va aloqa vositalaridan biri – an’anaviy va har bir roman uchun deyarli majburiy bo‘lgan sevgi mavzusidir.

Shaklan qiyoslash tarafdorlari “muammoli sevgi” kompozitsiya usuli sifatida Yumaloq Stol an‘analari bilan bog‘liq ritsarli romanlarining xususiyatlaridan biri bo‘lib, xuddi shu usul XVII—XVIII asr romanlarida ham uchragan, “Tom Jons”da ana shunday qurilish va qiziqish o‘z cho‘qqisiga erishgan, hamda Skott bu yo‘nalishda yangi narsa yaratmagan, balki shundaygina mavjud namunalar asosida asar yaratgan deb aytishlari mumkin.

Haqiqatda ham, “muammoli sevgi” mavzusini Skottning kamida yigirmata romanida uchratamiz. Ulardan to‘rttasi fojeali tugasa, qolganlarida qiyinchiliklar yengib o‘tilib, og‘ir kechinmalar va xavflar zanjiri baxtli nikoh bilan yakun topadi.

Biroq, aytish kerakki, bunday sevgi hayotda ham uchrab turadi. Ikkinchi tomondan, uni muallif g‘oyasidan, asar mazmun-mohiyatidan tashqarida olib qaralsa, haqiqiy soxta yo‘l ekanligi ma‘lum bo‘lib qoladi. Skottning har bir romanida ana shu sevgilar bir xil vazifa bajarishiga qaramay, har gal turlicha hal etiladi.

Miss Edit Bellenden kambag'al oiladan chiqqan Genri Mortonga nisbatan balandroq ijtimoiy pog'onani egallaydi. Shu bilan birga Morton – presviterian diniga e'tiqod qilib, yana qarama-qarshi siyosiy partiya vakili. Edit u bilan "o'z amakisinikida uchrashib, o'zi bilan do'stona, hatto undan ham yaqinroq tilda so'zlashish imkonini bergan edi". Mortonning "raqibi" Genridan har tomonlama ustun bo'lib ko'rinadi: u lord, ulkan boylikka ega, Edit bilan yagona dinga sig'inib, bir partiya vakili hamdir. Ammo ana shu jihatlarga qaramay Edit Mortonga sodiq qoladi. Raqiblar jangda ikki tarafda qolib ketib, bir-birini xavfdan qutqarib qoladilar. Nihoyat, uzoq ayriliq va taxt tepasiga yangi sulola kelganidan so'ng Morton Angliyaga qaytadi va ular birga baxtga erishadilar.

Ammo na Edit, na Morton o'z siyosiy qarashlaridan voz kechmadilar. Shunday bo'lsa ham, Elit isyonchiga bo'lgan hurmatini saqlab qoldi, Morton esa uning dinini yuziga solmay, qirol tarafdori ekanligida ham ayblamaydi. Ikki o'zaro dushman siyosiy partiyaga oid insonlar, dahshatli fuqarolar urushi davrida ikki qarama-qarshi lager tarafdorlari o'rtasidagi sevgi ramziy ma'noga ega. Tabiat o'zining umrboqiy qonunlari bilan tabaqa va siyosiy ziddiyatlardan yuksak. Aqli raso va qalbi mehrga to'la ikki inson adolat va o'zaro hurmat yordamida hal etilishi shart bo'lgan kelishmovchiliklar tufayli sevgi rishtalarini uza olmaydilar. Taxtni Vilgelm Oranskiy egallab, o'zaro janjallar barham topgach, ikki sevishtgan qalb nihoyat niyatiga erishdilar. Ushbu nikoh bilan Buyuk Britaniya yaxlitligi tasdig'ini topib, Skott fikriga ko'ra, tabaqaga oid sezgilarga nisbatan muhimroq va mustahkamroq bo'lgan insoni sezgilar oqlandi.

Sedrikning o'g'li Saksoniya sulolasi merosxo'ri Atelstanga unashtirilgan ledi Rovenani sevib qoladi. Otasi normannlarga tarafdor bo'lgan Ayvengoni uyidan haydab yuboradi. O'zboshimcha saks o'zining siyosiy qarashlari tufayli o'g'lidan ham voz kechishga tayyor. Ammo uning intilishlari behuda. Ayvengo siyosatchi sifatida otasidan ko'ra uzoqroqni ko'radi. Normann qiroli ingliz qiroli bo'lib chiqadi va Roveni Ayvengoga tegib, ularning nikohi endilikda sakslar va normannlarni o'zaro yanada yaqinlashtirdi.

Evenellar urug'ining merosxo'ri chekka darada, Glendearg pomestyesida yashaydi. Uni kelgindi ritsar uylanish niyatida, biroq shu bilan birga nasl-nasabi yo'q ikki aka-uka ham sohibjamolni sevadilar. Biroq kelib chiqishidagi farq hech narsani hal qilmaydi: u aka-ukalardan biri, mohir jangchini sevib, yigit birdaniga o'sib, katta lavozimga ega bo'ladi.

Julian peveril bolalikdan birga o'sgan qizni sevib, qizning otasi -ashaddiy puritan. Qizning otasi, mayor Briport, qari Peverilni yomon ko'rib, Julianni o'zi tarafga og'dirib olish niyatida. Qiz siyosat qurboni bo'lishni istamaydi va bunga qarshilik ko'rsatadi. Adolat izlayotgan Julian esa, partiyalar orasida qolib, oxir-oqibatda baribir otasi tomonini oladi. Turli sinovlardan o'tib, u nihoyat, Alisa Briportni xotinlikka oladi. O'z o'yinini yutqizgan uning otasi esa nikohga rozi bo'lishga majbur. Bu nikoh, bir qarashda hech qachon kelishmaydigan ikki siyosiy partiyalar yarashuvining ramzi bo'lib xizmat qildi.

“Tumor”da shotlandiyalik shahzodaning Edit Plantegenetga uylanishi “og'a-ini qirolliklar” yarashuvi mumkinligi va zaruratini, Skott shuncha ijodiy mehnatini sarflagan Buyuk Britaniya birligi va yaxlitligini anglatadi.

Polkovnik Everard oqil inson. U Oliver Kromvel tarafdori, chunki haqiqat u tarafda ekanini hamda qirolning mag'lub bo'layotganini ko'rib turibdi. Ammo u o'zboshimcha kavalerning qizini sevib qolib, kavalier qizi “yumaloq bosh”ni sevgani uchun uni oq qilishga ham tayyor. Ko'plab sinov va janjallardan so'ng ota bu nikohga rozi bo'ladi va ikki turli partiyaga oid sevishtganlar visolga erishadilar («Vudstok»).

“Lammermurlik kelin” asarida barchasi o'zgacha tus oladi. Siyosiy kelishmovchiliklar va kelin ota-onasining pul ishlab olish niyati sevishtganlarning irodasi va matonatidan kuchliroq chiqib, og'ir ziddiyatning baxtli yakuni bo'lmish – nikoh ro'yoga aylandi.

“Edinburg zindoni”da o'ziga xos holat yuzaga keladi. Jorj Stounntonning Effi Dins bilan nikohi baxtsiz bo'lib chiqdi, biroq buning sababi sevishtganlarning jamiyatning turli tabaqalariga tegishli ekanligi emas. Stounnton, sodir etgan jinoyat, onasidan o'g'irlangan nikohsiz farzand, sud va

sharmandalik, yashirinib yurish va haqiqiy ismini berkitish zarurati – barcha ana shu baxtsizlik va xatolarni birgina baxtli nikoh bilan “xaspo‘shlash”ning iloji yo‘q. Ijtimoiy pillapoyaning yuqori pog‘onasini egallagan bu juftlikka Jina Din va uning pastor-eri qarshi qo‘yiladi. Buning sababi, ular nafaqat taqdir avval boshidan ularni qo‘ygan holatda qolganlari emas, balki ko‘proq ular nafsga berilmay, vijdon amriga rioya qilganlari tufayli ro‘y berdi.

Skott ziddiyatlarni aralash nikoh yordamida hal qilish yoki hech bo‘lmasa yumshatish mumkin deb hisoblamagan bo‘lsa kerak. Uning romanlaridagi nikohlar, masalan, Zolyaning “To‘rt zabur” (Yevangeliye) idagi dasturiy ahamiyatga ega emas. Ular faqat Skottning o‘zi ko‘tarib chiqqan muammosiga munosabatini bildiradi, xolos. “Yumaloq bosh”ning royalist qizini, kavalerning esa puritan qizini sevib qolishi, o‘qchining grafinyaga, demokratning zodagon ayolga bo‘lgan muhabbati inson zotining birligi oldida yengib bo‘lmas to‘siqlar yo‘qligini bildirib, turli tabaqa odamlari tengligini, tabiat turli ijtimoiy taqiqlardan ustunligini va baxti uchun kurashgan hamisha, sun‘iy to‘siqlar, an‘analar, bid‘atlar, milliy adovat va partiyalar fanatizmiga qarama-qarshi g‘olib chiqishidan guvohlik beradi.

1822 yili “Ueverli”ning sirli muallifi va mavjud bo‘lmagan kapitan Klatterbak romanning muammolarini muhokama qiladilar. Matbuotda paydo bo‘layotgan maqolalar hamda do‘stlarining fikrlari javob talab etganligi sababli noma‘lum muallif shon-shuhrat cho‘qqisiga erishganidan so‘ng kitobxonlarga asarlari kompozitsiyasi tamoyillarini izohlab berish niyatida edi.

Kapitan Klatterbak “Nayjelning sarguzashtlari” nomli yangi roman syujeti “tabiiy va haqiqatnamo; boshlanish qismi tezda o‘ziga tortib, hikoya qorong‘i va ajib g‘ordan boshlanib, to‘xtamay oqib boradigan, yo‘lidagi barcha joylarga kirib o‘tgan, tobora kengayib, chuqurlashib borgan, turli tuman kemalar yelkanlarini yig‘ib, yakor tashlagan biron yirik gavanga kelib to‘xtagan, ulkan daryo oqimi kabi tabiiy kechib, baxtli yakunlanadi.

“Dunyo barpo bo‘lganidan beri bunday roman hali yozilgan emas” javob beradi qo‘rqa-pisa muallif, so‘ng “Tom Jons” yoki “Ameliya” aynan ana

shunday roman ekanligini e'tirof etadi. "Filding, mohiyatiga ko'ra, o'zi yaratgan san'atni yuqori baholagan". Muallif roman (novel) va epopeya o'rtasidagi o'xshashlik to'g'risida so'zlaydi: "Smollett, Lesaj va boshqalar o'zlarini u belgilab qo'ygan qat'iy qoidalardan ozod etish bilan har qadami bizni tuguniga yaqinlashtiradigan, to'g'ri konstruksiyalangan asar yaratishdan ko'ra ko'proq inson bilan uning hayoti davomida ro'y beradigan turli sarguzashtlarni hikoya qilib berardilar. Mazkur buyuk yozuvchilar o'z kitobxonlari ko'nglini yo'lda ozgina ovlay olsalar, shundan qoniqish hosil qilganlar. Ammo ularning asarlari faqat har qanday qissaning boshi va oxiri bo'lishi kerak bo'lgani, kech kelganida charchagan sayyoh mehmonxona eshigi oldida otidan tushgani kabi tugallanar edi".

Skottning syujetlari nisbatan ochiq bo'lib, ularga yangi personajlar osonlik bilan kiritilib, hikoyatning asosiy "tana"sidan yangi epizodlar "o'sib" chiqadi. Uning kompozitsiyasi nisbatan erkin, hayot kabi erkin bo'lib, hayotda bo'lishi mumkin bo'lgan narsalarning barini o'z ichiga oladi.

Skott asarlaridan ilhomlangan Stendal Filding romani "Tom Jons va Sofiya o'rtasidagi duet bo'lib tuyulgan" va yozuvchi buni xato hisoblab, o'z ijodi shunday nuqsonlardan xoli bo'lishini istagandi. Skottning bironta romani ham duetga o'xshamaydi. Ularning har birida omma yashaydi, ko'plab taqdir va syujet chiziqlari kesishib, xuddi ko'p sonli ovozlari o'z partiyasini ijro etishi orqali yagona va murakkab asarni yaratadilar.

«Edinburg zindoni» — o'z opasi uchun avf so'rash maqsadida Shotlandiyadan Londonga piyoda yo'l olgan Jini Dine to'g'risidagi hikoyatdir. Avfga erishgan Jini uyiga qaytadi, opasi esa ozod etilib, roman shu yerda tamom bo'ladi. Bu romanning markazini tashkil etishi lozim. Barcha qolgan narsalar ikkinchi planga surib qo'yilishi va ayovsiz kesib tashlanishi kerak — Balzak so'zlariga ko'ra, yaxlitlik uchun o'ta "shoxlab" ketgan epizod va detallarni "butab" tashlashi kerak bo'lgan muallifning qahramonligi aynan shundan iborat. Biroq Valter Skott o'zgacha o'ylaydi.

«Edinburg zindoni»da, Jini Dinedan tashqari, deyarli teng huquq bilan uning opasi Effi ishtirok etib, uning sud jarayoni butun e'tiborni o'ziga jalb etgan. Unga sodir etmagan jinoyati uchun o'lim jazosi tayinlashlari mumkin. Uning farzandining otasi kim? Bu Uilsonning o'limi uchun qasos olgan uning do'sti bo'lsa kerak. Xo'sh, jinoyatchi bilan boodob va yaxshi oilada tarbiya ko'rgan pokiza qiz qanday qilib topishdilar ekan? Qotil e'tibor bilan o'rganilishi kerak. Doya ayol qo'lidan omon saqlab qolingan bola taqdirini kitobxondan yashirish qiyin; u ikkovidan biri bolani o'ldirishi, ikkinchisi uni saqlab qolishi kerak bo'lgan ona va qizining taqdiri kabi batafsil hikoya qilib berilgan.

“Rob Roy”da ham ana shunday kesishuvchi syujet chiziqlarini ko'rishimiz mumkin. Skott sud'ya Jarviga, xuddi Dalgettiga juda ko'p joy ajratgan deb hisoblagan tanqidchilarga Skott “Nayjel sarguzashtlari”ning kirish qismida quyidagicha javob beradi: “Men Beyli Jarvi yoki Dalgetti kabi shaxslarga duch kelganimda tasavvurim alangalanib, ular bilan birga bosgan har qadamim bilan fikrim ham tiniqlashib boraveradi. Bu ba'zan meni to'g'ri yo'ldan chekkaga olib ketadi va ba'zan ortga qaytish uchun to'siqlar va ariqlardan sakrab o'tishimga to'g'ri keladi. Bu g'oyaga qarshilik qilib, unga berilmasam, fikrim o'tmaslashib, sust va nobop yoza boshlayman”.

Skott o'z estetikasi qonunini ruhiyat tiliga o'girdi. Agar u Dalgetti va Jarvi to'g'risida bunchalik ko'p yozish kerakligiga ishonchi komil bo'lmaganida, shundaygina ortiqcha qismini o'chirib tashlardi, xolos. U bu ishni qilmabdimi, demak u aksincha fikrlagan. U o'zi katta e'tibor qaratgan komik personajlarni ma'qul ko'rib, obrazlar va harakat kengaygan sari rivojlanib borgan, “ko'ngli keng” kompozitsiyani qoidalar ichiga “tiqilib”, tor, materialni buzadigan va ilhomning yo'lini to'sadigan kompozitsiyadan afzal deb bilgan.

“Monastir”da gap Shotlandiyada din taqdiri to'g'risida boradi. Xelbert Glendinning syujet chizig'i asar boshidanoq birinchi o'ringa chiqmaydi. Evenellar urug'i va ingliz tiliga o'girilgan Injil taqdiri, Oq xonimning oila ishlariga aralashuvi, Glendinninglarning otasi vafotidan keyingi hayoti –

bularning bari e'tiborni bittayu-bitta tarjimai holga qaratib, hikoyat markazini belgilab olish imkonini bermaydi.

So'ng o'z syujeti va romani bilan Pirs Shafton, undan keyin baron Evenelning oilaviy ishlari paydo bo'lib – kitobxon o'zaro mahkam bog'liq hodisalar turkumini kuzatib boradi. "Monastir" avvalgi davrlarning "to'g'ri" va "noto'g'ri" romanlariga umuman o'xshamaydigan yangi kompozitsiyaga eng namunaviy misol bo'la oladi.

2.3. V. Skottning obraz yaratishdagi mahorati.

“Ayvengo” syujeti oʻrta asrlarga xos anʼanaviy “salbchining qaytishi” mavzusi bilan bogʻliq ravishda yuzaga kelgan boʻlsa kerak. Bunda eri tirik boʻla turib xotini ikkinchi bor erga tekkan boʻlsa ham muallif buni bevafoqlik deb aytmaydi, balki boshqaga tegishi kerak boʻgan maʼshuqaning yuragini ikkinchi bora zabt etish, va tarixiy faktlarga mos ravishda – qirolning oʻz qirolligini ikkinchi marotaba egallashi roʻy beradi. Bu ikki syujet romanda uzviylik hosil qiladi. Uchinchi mavzu – yolgʻon ayb taqalib, soʻng ilohiy sud tomonidan oqlangan jodugar toʻgʻrisida. Toʻrtinchisi – zoʻravonning bir vaqtlar oʻzi zoʻrlagan ayol tomonidan oʻldirilishi, hamda bosqinchining u egallab olgan qasr egalarining qizi tomonidan qatl etilishidan iborat. Nihoyat, qadimgi ingliz baladalaridan oʻzlashtirilgan beshinchi mavzuni ham koʻrsatib oʻtish mumkin – bu adolat va xalq himoyachisi – qaroqchi boʻlib, u oʻz odamlari bilan mazlum xalq tarafida ishtirok etib, uni muhofaza qiladi. Ushbu deyarli folklor mavzularidan har biri muayyan shaxslar bilan bogʻliq, ammo ular shuningdek boshqa syujetlarda ham ishtirok etadi. Oʻz sevgilisi uchun kurashda gʻolib chiqqan Ayvengo jodugar sudida ham qatnashadi va qirollikni qaytib olish uchun kurashga kiradi. Qirol oʻzining asosiy rolidan tashqari erkin oʻqchilarga yaramas baronni jazolashga koʻmaklashadi. Urfrida oʻzi va otasi uchun qasos olishi bilan qirol va qaroqchilarga koʻmaklashadi.

Falastindan qaytgan salb yurishi ishtirokchisi ziyoratchi kiyimida ota uyiga kirib keladi. Tampliyer va sudxoʻr-yahudiy ham shu yerga hozir boʻladilar. Deyarli barcha ishtirokchilar ana shu ingliz-sakson qasrida boshqalar bilan oʻzaro bogʻlanib, turnirda yana uchrashish uchun tarqalib ketadilar. Turnirdan soʻng ular endilikda muhabbat, nafrat, intilish va hisob-kitoblar bilan bogʻlanib, yana bir bor, bu gal Torkvilstonda uchrashish uchun tarqaladilar.

Bu oʻziga xos tarixiga ega qasrda afsonaviy mohiyati va uygʻotadigan ehtiroslariga koʻra turli-tuman uchrashuvlar roʻy beradi. Skott har bir mavzuni alohida rivojlantirib, soʻng ularni ajratib, syujet yordamida qaytadan bogʻlaydi.

Sedrik va Atelstan Fron-de-Befa qasrida Garoldning so‘nggi bazmi haqida so‘zlab, ovqatlanib o‘tirgan bo‘ladilar. Biroq ularning suhbatini qasr darvozasi tagida yangragan muguz tovushi bo‘lib qo‘yadi. “Tovush uch marotaba shu qadar kuch bilan takrorlandiki, misoli jodulangan qasr qarshisida uning chaqirig‘iga binoan zallar va minoralar, barbakanlar va devorlar tonggi tuman kabi yo‘q bo‘lib ketishini istagan ritsar muguz chalardi. Sakslar irg‘ib turdilar...”

Qasrning zindonida Fron-de-Bef yaxudiy Isaakni qiynab, uni azoblaydi. Biroq uning ishiga ham qamoqxonada devorlaridan o‘tgan o‘sha muguz tovushi xalal beradi.

Ledi Rovenaga keltirilgan xona butunlay o‘zgacha edi. De Brasi uni o‘ziga turmushga chiqishga majbur qilmoqchi bo‘ladi. Shu vaqt u ham muguz ovozi eshitib, bir qadimgi balladada aytilishicha, «hoarse-winded blowing far and keen», ya’ni “barcha yashovchilarni bezovta qilgan tovushni eshitadi va ularning xudbin va yaramas maqsadlarini amalga oshirishga yo‘l qo‘ymagan” ovozi eshitadi. Qasrning narigi burchagida Revekka o‘z taqdiri nima bo‘lishini kutardi. Tampliyer uning qarshisida jozibador istiqbollarning manzaralarini chizib yo‘ldan urmoqchi bo‘ladi. “Biroq men sirlarimizni oshkor qilmayman. Bu tovush mening hozir bo‘lishimni talab qiladigan qandaydir hodisa yuz berganidan dalolat”.

Muguz tovushi voqealar borishida burilish bo‘lib, hozir ishtirokchilar yuzma-yuz to‘qnashadilar va tarqoq taqdirlar yana bir bor uchrashib, barcha syujet chiziqlari birlashishini anglatardi.

Qasr qo‘lga kiritilganidan so‘ng qahramonlar turli tarafga tarqab ketdilar: Brian de Buagilber dushmanlarga to‘dasi orasidan yorib o‘tib, Revekka o‘zi bilan olib ketadi. Atelstan uning qilichidan halok bo‘ladi. Sedrik Rovenaga, Ayvengo va xizmatkorlari bilan o‘z qasriga ravona bo‘lsa, Isaak yordam so‘rab do‘stlari oldiga ketadi. Robin Gud o‘z o‘rmoniga, Qora ritsar esa Vamba bilan birgalikda ishonchli baronlarni izlab yo‘lga tushadilar. Barining yo‘li hozircha ayri ketib, oxir-oqibatda taxtni qayta egallagan Richard I ning siyosiy yo‘li eltadigan falokatga kelish uchun kechroq yana birlashadi.

Bu, Skott aytganidek, “qo‘shimcha” yoki “xususiy” hodisalar oxir-oqibatda yangi mazmun bilan boyib, umumiy “o‘zan”ga qo‘shilib ketadilar. Revekkaning Rovenaga bilan uchrashuvi uzilib ketgan iplarni ulagan kabi romanning yaxlitligini tiklaydi. Garri Bertram qamoqdan qutulib, polkovnik Mannering uyiga kelganidan keyin advokat Pleydel Kennedining o‘ldirilishi xususidagi ish bilan shug‘ullanar, Dinmont uxlari, Bertram polkovnik bilan, Semson Lyusi bilan, polkovnik esa o‘z qizi bilan suhbatlashar edi. Shundan keyin yangi bob boshlanadi: “ushbu, aytish mumkinki, Vudbernning ba’zi yashovchilari o‘rtasida xususiy harakatlar bo‘lib o‘tganidan so‘ng... butun jamoat nonushta qilish uchun yig‘ildi” (“Gay Mennering”).

Skottning ko‘p rejali romani, sintaktik jihatdan murakkab jumla kabi ijodiy emas, balki bo‘ysunish yo‘li bilan qurilgan. Qahramonlar va ular bilan bog‘liq syujet liniyalari naqadar “mustaqil” bo‘lmasin, ularning bari hodisalarning umumiy “oqimi”ga bo‘ysunib, undan kelib chiqadilar va unga kelib qo‘shiladilar. Har bir syujet yoki taqdir chizig‘i hodisaning umumiy rivojiga bo‘ysunmas ekan, u holda tarixiy roman albatta tasodifga duch kelib, tarixiy qonuniyat yo‘qolgan bo‘lardi. Skottning ko‘p rejali syujetining uchinchi o‘lchami mavjud. U muayyan chuqurlikka ham ega bo‘lib, buni adibning dastlabki romanlarida ko‘rishimiz mumkin.

Soddalik va tajribasizlik qahramonlarga xos bo‘lmagani uchun Skott asarlaridagi yosh yigitlariga bu fazilatlarni kitobxon e’tiborini qozonish uchun bermaydi. Adib vazifasi ana shu soddadil insonni hayotning murakkab tomonlariga duchor etishdan iborat. Yosh hayolparast oddiy kun kechirishdan zerikib ketgadi, biroq endi hodisalar o‘ta tez kechib, g‘alatiligi va aql bovar qilmasligi bilan kishini lol qoldiradi.

Biroq bu dastlabki taassurot, xolos. Shart-sharoit va hodisalar to‘fonida qandaydir maqsad ko‘zga tashlanadi. Qahramon tarjimai holi mantiq olib, uning taqdiri kimningdir ongli irodasi, ixtiyorining natijasi bo‘lib chiqadi. Frensis Osbaldistonga yo‘lni har muyulishida kutilmagan hodisalar duch keladi. Ular qahramonga noloyiq tasodiflar zanjiri bo‘lib tuyulgan voqealar tizimidir. Ammo

yosh Frensis boshiga tushgan g'aroyib sarguzashtlar Diana va Reshlining o'zaro kurashi bilan izohlanadi.

XVIII asrning sarguzasht romanlarida kitobxonni hayot sinovlari va omadning yuz o'girishi hayratga solgan. Qaroqchilar hujumi, kutilmagan uchrashuvlar, duellar. Odam o'g'rilashlar, insonni buyuklik cho'qqisiga eltgan va baxtsizliklar qa'riga uloqtirgan "taqdir zarbalari" – bularning bari hech qanday ichki aloqasiz ketma-ket ulanib keladi. Har bir hodisa o'zicha mustaqil ma'noga ega, ularning ketma-ketligi esa faqat bir maqsadga – taqdirning imkoniyatlaridan hayratlanish,

Romanning ishtirokchi shaxslari shaxmat maydonidagi tizilgan, har birining qiymati avvaldan ma'lum bo'lgan donalar kabi bari birga paydo bo'lmaydi. Skott o'zining tasavvurini cheklab qo'yadigan "qoida"larni yomon ko'rar edi. Personajlar o'z vaqti kelganidan so'ng, asosiy manfaat ularni sahnaga chorlaganida harakatga kirishadilar. Voqealar joyi hodisalar qay tarzda rivojlanishiga bog'liq tarzda o'zgarib boradi. Skott hech qachon o'z oldiga dekoratsiyalari o'zgarib turadigan dramadagi kabi voqea joyi o'zgaruvchan roman yaratish maqsadini qo'ymagan. Biroq, boshqa tomondan, u asarlarida aslo u yoki bu darajada batafsil o'rganilgan joy bilan cheklanmagan – faqat berilgan (mazkur) g'oya va vaziyat taqozosi yordamida hal qilish mumkin bo'lgan sharoitda unga na klassik, na romantik poetika kerak bo'lmagan.

Roman voqealari bir yoki bir necha joyda, qasr yoki katta ko'chada bo'lib o'tishi mumkin, ammo ular doimo bir joyda jamlangan. Skott romanlari topografik nuqtai nazardan aniqligi bilan ajralib turmaydi: Adib topografiya bilan, xronologiya kabi erkin foydalanishga odatlanib, o'z g'oyalari ehtiyojlariga bo'ysundirgan. Bu yerda so'z badiiy topografiya to'g'risida ketmoqda. Voqea joyi boshdan-oyoq to'qib chiqarilgan yoki tasavvur yordamida qayta tiklangan bo'lishi mumkin, ammo bu joy asar hodisalariga aniq mos tushib, ularni izohlab keladi va unda dramasini o'ynayotgan odamlar bilan birga yashaganday bo'ladi.

Ko'plab romanlari bir necha lokal (mahalliy) markaziga ega. "Ueverli"ning markazi faqat Breduor-din pomestyesigina emas, balki Mak-

Ivorning qasrida ham joylashgan. Ular xuddi qahramon taqdiri qalqib turgan ikki qarama-qarshi punktga o'xshaydi. Ular ramz vazifasini bajarib, ularni qarshilantirish ham o'ziga xos ramz bo'lib keladi. Shuningdek «Lammermurlik kelin» ham bir necha voqealar markaziga ega. Ulardan biri, Kenilvort, ikkinchisi esa Emi Robsart qamoqxona-uyi bo'lib. Voqealar shu yerda boshlanib, aynan shu yerda yana tugaydi. «Puritanlar»da lokal markaz - Tillitudlem bo'lib, biroq asarning so'nggi qismida e'tibor Berli g'origa ko'chib, bu yerda muhim bir hujjat saqlanib, so'ng yoqib yuboriladi. «Ayvengo»da asosiy markaz - Torkvilston, va shu yerda hodisalarning asosiy to'plami aynan shu yerdan boshlanadi. Biroq – Sedrikning kulbasi, birodar Tuk uyi kabi boshqa markazlar ham bor.

Sahna hodisani izohlab, uni ro'yobga chiqishini ta'minlaydi. Torkvilstonda («Ayvengo») bo'lib o'tayotgan hodisalar undagi arxitektura bilan bog'liq: ular boshqa yerda va o'zga binolarda bo'lib o'tishi mumkin emas. «Gay Mennering» hodisalari ular sodir bo'layotgan muhit konfiguratsiyasiga chambarchas bog'langan. Ellengauen harobalarini, Dernklyuy minorasini, tashlab ketilgan qishloqni, dengizning qoyali qirg'og'ini, o'nlab chaqirimga cho'zilgan o'rmonni, g'orni yo'qotish – romanning muhim bir qismini yo'q qilish bilan teng. Hodisa sahnasidan chalg'ib ketilsa, asarning butun jinoiy intrigasi yo'qoladi. «Vudstok»da hikoyat to'la-to'kisligicha eski qasr arxitekturasi bilan bog'liq. Devor ichidagi yashirin yo'laklar, sirli yashirin eshiklar, chiqib bo'lmaydigan minora kabilar xotiradan mahkam joy olib, qiziqarli syujet bilan birikib ketadi.

“Ayvengo” romani Valter Skottning bu davrdagi asarlari orasida alohida o'rin tutadi. Bu roman markazida XII asrda Angliyada kuchayib borayotgan qirollik shokimiyati bilan o'zboshimcha feodallar o'rtasidagi kurash voqealari turadi. Asarda yozuvchi o'zining sevimli qahramonlari ritsar Ayvengo, qirol SHeryurak Richard va ularning atrofidagi personajlarning romantik qiyofasini gavdalantirib beradi

Asar qahramonlari mard, sevgisiga sodiq kishilar . Ayniqsa, asardagi xalq vakillarning obrazlari juda mukammal: qiziqchi Vamba, cho'chqaboqar Gurt, xushchaqchaq monax Tuk, o'rmondagi kamonchilar boshlig'i jasur Robin Gud ana shunday personajlardir. Asarda anglo-saks feodallari hamda dehqonlari bilan norman bosqinchilari o'rtasidagi kurash aks etgan. XI asrda Angliyani bosib olgan normannlar haddan tashqari zulm va adolatsizlik qiladilar. Normann feodallari Fron de Bef, Buagilber de Brasi va boshqalar anglo-sakslarni ezadilar, yer-mulkini tortib olib, izlarini taxqirldaydilar. Ularning mashalliy asholiga qo'pol muomala qiladilar. Anglo-saks feodallari-Sedrik, Atelston va boshqalar o'z mulkini normann bosqinchilaridan shimoya qilish uchun kurashadilar. Oddiy xalq ham o'z feodallari, ham bosqinchi normannlar zulmidan ozor chekadi. Ular nihoyatda qashshoqlashib, xonavayron bo'lganlar. Shuning uchun o'rmonlarga yashirinib, bosqinchilarga qarshi kurash olib boradilar. Bu qashshoq ommaga Angliya xalqining sevimli qashramoni Robin Gud boshchilik qiladi. U romanda Lokslini nomi ostida berilgan. Xalq o'z boshlig'i Robin Gudni (Lokslini) sevadi va uning ketidan ergashadi.

Yozuvchi asarda Robin Gud haqidagi xalq qo'shiqlari va balladalaridan ustalik bilan foydalangan.

Romanda XI asr Angliyasida mutlaqo huquqsiz, quvg'in qilingan yashudiylar shayoti sham yoritilgan. Ularni xristian dinini bilmagani uchun anglo-saksalar ham, normann bosqinchilari ham xo'rlaydilar, kamsitadilar. Yaxudiylarning namoyandasi sifatida, romanda savdogar chol Isaak va uning go'zal qizi Ravekka obrazlari berilgan.

Asarning bosh qashramoni Uilfred Ayvengo saksrniyalik feodal Sedrikning o'g'li bo'ladi. Ayvengo qirol SHeryurak ritsarga sodiq bo'lganligi uchun otasi uni uydan xaydab yuborgan. Ayvengo qirol Richard bilan birga sharqqa, salb yurishlariga borib ajoyib qahramonliklar ko'rsatgan.

Valter Skott "adolatli monarx" tarafdori bo'lgani uchun normann qirol SHeryurak Richardning ezilgan xalq tomonida turib, o'z boshimcha feodallarga qarshi kurashganini kursatgan. Sedrik yirik feodal bo'lganligidan qirolga

bo'ysingisi kelmaydi. O'li Ayvengo bilan ham ana shu sababli kelisha olmaydi. qirol SHeryurak Richard salb yurishlarida ekanligida uning ukasi shahzoda Jon taxtga o'tirib, o'z atrofiga normann feodallrini yig'ib olib, mamlakatda o'zboshimchalik, adolatsizlik qilmoqda edi. Salb yurishlaridan qaytib kelgan qirol vaqtincha noma'lum ritsar qiyofasida yashirib yurishga majbur bo'ladi. qirol SHeryurak Richard o'rmondagi Robin Gud kamonchilari bilan birga harakat qiladi.

Ayvengoning otasi chol Sedrik o'zi tarbiyalagan gizal qiz Rovenaga, savdogar yaxudiy Isaak va uning qizi Ravekka normann ritsarlariga asir tushadilar. Normann feodallari – Fron de Bef, Buagilber va de Brasiar asirlarni qamab, ulardan juda katta to'lov berishni talab qiladilar. Lekin qirol SHeryurak Richard, Ayvengo o'rmondagi Robin Gud kishilari bilan birgalikda feodal Fron de Bef qo'rg'onini yondirib, asirlarni ozod qiladilar. Buagilber nomli normann ritsari Ravekkani olib qochadi. qiz Buagilbergaga turmishga chiqishga rozi bo'lmaydi. Cherkov magistri Luki Bimaniara Ravikani sehrgarlikda ayblab, olovda kuydirishga hukm chiqaradi. Ayvengo qizning himoyasiga o'tlanib, yakkama-yakka jangda Buagilgerni o'ldiradi va Ravikani ozod qiladi. Nihoyat qirol SHeryurak Richard dushmanlarini yengib, taxtga o'tiradi. Ayvengo otasi Sedrik bilan yarashadi. U go'zal qiz Ravinaga uylanib, qirolning sodiq yordamchisi sifatida saroyda xizmat qiladi. Ravikka esa otasi Isaak bilan o'z yurtlariga ketadi. Shunday qilib, romanda mayda, tarqoq feodal o'zboshimchaliklari ustidan yirik, markazlashayotgshan mustabid davlatining g'alabasi ko'rsatilgan.

Asardagi Anglo-sakslar – Sedrik sham Atelstan ham, normannlar Fron de Bef ham, de Brasi hamda Buagelberlar mag'lubiyatga uchraydilar.

Asarda feodallarning qiyofasi, yirtqichligi, shafqatsizligi real gavdalantirgan. Roman syujuti rang-barang voqyealar, romantikaga boy lavhalar tilga olinadi. Ayniqsa, Roben Gud boshliq ommaviy sahnalar, zulimga qarshi g'azab va nafrat bilan yonayotgan xalq harakati tasvirlangan sahifalar yozuvchining demakratizimidan darak beradi. Asardagi feodal qasrini qamal qilish, uni yondirib yuborish, ritsardlik musobaqalari tasvirlangan sahnalar Valter Skott o'zi hikoya qilayotgan davr tarixini, xalq tarixini nixoyatda chuqur bilishini ko'rsatadi. Mehnat

ahlining og'ir ahvoli, yaxudiy millati vakillarining kamsitilishi va xo'rnalishi, xukmron sinf vakillarining o'ta ketgan shavqatsizligi singari faktlarning real tasviri Skott romanining qimmatini oshiradi.

Asar qaxramonlarining, ayniqsa xalqdan chiqqan qahramonlarning tili ham ifodali bo'lib, undan xalq og'zaki ijodi xazinasining durdonalari ko'p ishlatiladi.

XVIII asrining o'rtalaridan boshlangan o'rta asrlarni tiklash harakatida o'sha davr me'morligi (arxitekturasini) o'rta asr adabiyotiga nisbatan muhimroq o'rin tutgan. Angliyada saqlanib qolgan ko'p sonli gotika davri binolari badiiy qiziqishlar markazidan joy olib, ushbu davr afsonalari, e'tiqodi va madaniyati esa qasr yoki gotik ibodatxonaga berilgan qo'shimcha, ilova rolini o'ynardi. Bu fikr, xususan, gotik romanga nisbatan adolatlidir.

«Otranto qasri» osri atiqalarga qiziqishdan boshlandi. Yo'laklar va yerto'lalar, odam yashamaydigan xonalar, o'ta qalin devorli minoralar turli-tuman sirlarni o'zida saqlab, ularni ochish jarayoni syujetga aylanib boradi.

Bu so'zlar Klara Riv romaniga ham tegishli: bunda qasr devorlari ko'chma ma'noda emas, balki to'g'ri ma'noda roman qahramoni ochmoqchi bo'lgan sirni o'zida saqlaydilar. Qasr rejasi, unda xonalarning joylashuvi – hikoya rivoji uchun har narsa ahamiyatlidir. O'rta asr me'morchiligi bilan alohida syujet va kechinmalar bog'liq bo'lib, kitobxon birinchi bobda qasrning qo'rqinchli sharpasiga ko'zi tushgach, bundan uyog'iga nima kutish kerakligini yaxshi biladi. Anna Redklif o'zini o'rta asrlar davri bilan cheklamay, uning ba'zi romanlari voqealari XVIII yuz beradi. Ammo uning barcha hikoyatlari markazida o'rta asr qasri qat'iy joy egallagan. Bu gotik roman uchun davrdan ko'ra me'morchilik obidalari muhimroq bo'lib, o'rta asrlar madaniyat sifatida gotik (ya'ni o'rta asrlarga oid) syujetga nisbatan kamroq ahamiyatlidir.

Shunday qilib, gotik roman, o'zining alohida maqsadlariga intilgani bilan, voqea-hodisa joyiga qiziqish uyg'otib, hodisalarni ular yuz bergan joy, muhitga nisbatlashga o'rgatar edi. Peyzaj syujetga aylangan, bu yerda bir vaqtlar yuz bergan dramani o'ziga olganidan so'ng u tirik qahramon kabi ayniqsa real manzara kasb etadi.

Skott asarlarida qasrlar xuddi shu rolni o'ynaydi. Tork-vilston ichi yo'laklar va minoralarga to'la, ular ko'ngilga sir va qo'rquv soladilar, yo'lak toshlari qachonlardir to'kilgan qon izlarini saqlab, o'lim to'shagida yotganlar ko'ziga qandaydir odamlar ko'rinadi. Ammo bu yerda bularning bari – qayta aks ettirilgan o'tmish, xolos, romanning mohiyati aynan ana shunda. Qasrda yuz berayotgan voqea, ularda qayta tiklangan hikoya dahshatli bo'lgani uchun qo'rqinchli tuyuladi.

Skott romanlarini sof shakl nuqtai nazaridan ko'rib chiqilsa, ya'ni ularning badiiy mohiyatini tashlab yuborib, yildan yilga qaytarilib kelayotgan sxemasinigina olinsa, xuddi shu tipdagi asarlar – sarguzasht, “qora”, falsafiy va maishiy romanlar bilan o'xshash jihatlarini topish mumkin. Biroq bu sarob. Ma'no-mohiyatga ega bo'lmagan sxema san'atda hech narsa emas. Skott kompozitsiyasi o'ziga olamni yangicha anglashni, fikr va sezgilarning yangicha qatorini o'ziga jo qilib, uning yangiligi ham shunda edi. “Romannavis vazifasi, - deb aytgandi Skott, - kitobxonda faqat tasavvur yordamida, moddiy buyumlarsiz hodisalar to'g'risida to'liq va aniq tasavvur hosil qilishdan iborat. Uning ixtiyorida faqat obrazlar va g'oyalar olami, uning qudrati va zaifligi, qashshoqligi va boyligi ham ana shunda. U rassom kabi shahar va o'rmonlari, saroy va qasrlarining ko'z bilan ko'rarli obrazini bera olmaydi; lekin o'ziga ruhan yaqin kitobxon tasavvurini uyg'otib, uning ruhiy nazari oldida Klod Lorrenga nisbatan go'zalroq peyzajlar, Salvador gullaridan g'aroyib atirgullar taqdim etadi... Roman muallifida... na sahna, na dekoratori, na akterlar truppasi, na rassomi, na garderoibi bor; u o'z imkoniyatlari darajasida foydalanadigan so'zlar dramaturgga ko'maklashadigan vositalar o'rnini bosishi kerak. Hatto dialog ham dialog ham bayon bilan birga boradi, chunki u personajlarning so'zlari bilan cheklanmaydi. Skott shuning uchun o'zini tarixiy va zamonaviy voqealar so'zlarini qog'ozga tushiradigan jamiyat kotibi deb atagan edi. Voqelik unga bo'lgan hodisalarni katta sur'atda aytib turganini u zo'rg'a yozib ulgurardi. Bu mehnat insonni lol qoldirardi. 1814 yili Uilyam Menzis, u paytda yosh yigitcha, Edinburgda yashab, qarshidagi uyda yozuv stoli ustida yozib o'tirgan bir kimsani ko'rardi. Yigitcha ko'rganidan dahshatga tushadi: «Men uni kuzatib turib, undan ko'zimni uza olmayman; u

umuman to'xtamay ishlaydi. Varaq ketidan varaq to'lib, qo'lyozmalar uyumiga qo'shiladi, u esa yozishdan hamon charchamaydi. Bu sham keltirgunlariga qadar, yana undan keyin qachongacha davom etishini xudoning o'zi biladi. Bu har kecha takrorlanadi. Men bu tomoshaga chiday olmasam kerak...» Bu Skott «Ueverli»ni tugatayotgan vaqt edi.

Skott amalga oshirgan yumush rostdan ham aqlni lol qoldiradi. Buni uning yelkasiga moliyaviy inqiroz tufayli tushgan ulkan qarz yuki bilan izohlash to'liq bo'lmaydi. O'ylab qo'yilgan narsasiga qiziqish, uzluksiz aqliy faoliyat paydo qilgan sirli hayajon, ijod qilishga bo'lgan ichki zarurat ham ishga undash kabi qabul qilinib, na dam olish, na to'xtashga yo'l qo'ymay, Skottni o'z san'atining quliga aylantirib, uni yozuv stoliga soatlab, oylab, yillab mixlab qo'yar edi.

“Qalamim qog'ozga tegishi bilan o'z-o'zidan jadallashib ketadi, — deb aytgan edi Skott, «Antikvariya»ni boshlar ekan. - Men ba'zan uning o'zi mening ko'magimsiz ham shunchalik tez yoza olish-olmasligini ko'rish uchun qo'limdan qo'yib yuborgim keladi”. Skott hech qachon o'zgartirishlar qilmas, uning romanlari qo'lyozmalarida bo'yalgan joylari deyarli yo'q. U o'zgartirishlar yozilgan narsani faqat buzadi deb hisoblagan. Qizg'in ish jarayonida nima deyish kerakligini yaxshiroq anglab yetasan va fikrning o'zi kerakli so'zlar shaklini oladi. Uslubga ortiqcha zeb berish, qalam bilan bayon etilib, yurakdan to'kilgan narsani qayta ishlash his-hayajonni o'ldirib, matnni uni yaratgan fikrdan ajratib qo'yadi. SHekspir tez yozsa, Ben Jonson shoshmasdan, ko'p marotaba qo'lyozmaga qaytib, ijod qilishni ma'qul bilgan. Skott o'z ish uslubini oqlash maqsadida ko'pincha SHekspirga murojaat qilardi. (MW, IV, 150—157; sr. 381—382).

Ba'zi tanqidchilar uni ana shunday “tezkor” yozish uslubi uchun ham tanqid qiladilar. Biroq qanday yozish kerak va qaysi usul bilan mukammal asar yaratishga erishish mumkinligini Skott o'zi yaxshiroq bilgan. O'ziga xos uslub palapartishliklari asarlarining eng oliy jihatlari kabi ijodiy mehnatining zarur xususiyati edi. Xuddi ana shu sabab tufayli Skott e'tibor berib quloq tutayotgandek bo'lsa ham, aslida tanqidga umuman qo'loq solmagan. Tanqidchiga quloq tutish – demak o'zgartirish, o'zgartirish – buzish demakdir, deb o'ylagan adib. Do'stlarining fikri

xususida esa, u faqat asar hech nimaga yaramaydi deganlar fikriga quloq solib, uni yirtib tashlar yoki asar ustida ishlamay qo'yardi (PW, II, 176; L, III, 383 va boshq.). Adib jasur bo'lishi va tanqiddan qo'rqmasligi kerak, qo'rqoq yozuvchi o'zini va kitobxonlarni ko'p narsadan, masalan dunyoda yaxshilikka xizmat qilishi mumkin bo'lgan asarlardan mahrum qiladi deb yozgan edi Skott Bayron haqida (MW, I, 292). Biroq gap keng ko'lamli, estetikaga oid bo'lmagan prinsipial muhim masalalar xususida borganida, u ayblovlarga quloq solar, ba'zan ularga javob ham qaytarar edi.

Skott xatning bevosita, aniq, ravon va sodda usulini o'zlashtirib olib, uni o'z uslubining asosiy xususiyati deb hisoblagan. Ranglar boyligi, uslub shakllarining turli-tumanligi, murakkab, o'tkir, o'zgaruvchan ritmlarni u asosan o'z personajlari uchun saqlab qo'yar edi. Bu kabi jasur va sodda uslub, uning fikricha, harbiy va xizmat kishilariga, shuningdek katta hayotga endi qadam qo'yib kirib kelayotgan va adabiyotni juda jonli qabul qiladigan yoshlarga ayniqsa yoqishi kerak edi. Bunda u o'ziga pastroq baho berardi: chunki uning asarlarini barcha yoshdagi, turli partiya a'zolari va har xil mavqeli kishilar o'qirdilar. Skott ijodi ichki yaxlitlikka ega bo'lish bilan birga odamlarda turli munosabat keltirib chiqarardi. E'tiqodi, ta'bi va odatlariga bog'liq ravishda, kitobxon yozuvchining ba'zi romanlarini ma'qullasa, boshqalarini rad etar edi. Skott, o'z asarlarini 1820 yillardan boshlab yaratishiga to'g'ri kelgan shoshqaloqlik uning asarlari sifatiga so'zsiz ta'sir ko'rsatdi degan fikr mavjud bo'lib, ammo "Vudstok" va "Pert go'zali" uni rad etish uchun eng yorqin misol bo'la oladilar. Yana boshqalar yozuvchi o'z Shotlandiyasidan ajralgach, ilhomi va ijodiy imkoniyatlaridan ham mahrum bo'ldi deb fikr bildirdilar. Biroq, ma'lumki, «Ayvengo» va «Kventin Dorvard», uning eng yaxshi romanlari sirasiga kiradi. Ba'zilar muallifning «zamonaviy» romanlari, ya'ni. «Antikvariya», «Ueverli» va «Gay Mennering»ni tarixiy romanlardan ustun qo'yib, o'ndan ortiq u yoki bu darajada uzoq tarixiy davrlarga bag'ishlangan ajoyib romanlarini yoddan chiqarib qo'yadilar.

Skottning olamshumul shuhratini uning ijodi o'zining barcha xislatlari bilan birga xuddi u qadar o'qimishli ham, katta ma'naviy ehtiyojlarga ega ham

bo'lmagan "olomon" saviyasidagi o'rtacha kitobxon mosligi bilan izohlash to'g'ri bo'lmaydi. Skottning shuhratini o'z fikrini qay tarzda bayon etishni avvaldan yaxshilab o'ylab ko'rmagan Karleyl va boshqa tanqidchilar ana shunday izohlaganlar. Yozuvchining banalligi muvaffaqiyatning asosiy sharti emas, albatta. Skottning ijodi Yevropani originalligi bilan lol qoldirdi. Uzoq vaqt u o'zi yaratgan janrda, ko'plab izdosh va shogirdlari bo'lganiga qaramay, yakka hokimlik qildi. Biroq, butun betakrorligi bilan u jahonda bo'lib o'tayotgan va ro'y berayotgan voqea-hodisalar bilan, Yevropa tarixining ana shu ajib davrida odamlar ongida amalga oshayotgan jarayonlar bilan chambarchas bog'liq.

Fransuz inqilobi Yevropa oldida muammolar qo'yib, unga mamlakat va partiyalar turlicha javob berdilar. Buyuk Britaniyaning dahshatli dushman qarshisida birlashish va asosan oddiy xalq, ishchi va dehqonlar zimmasiga tushgan qurbonlar keltirish zarurati eski ingliz-shotland muammosini yangi, yanada chuqurroq ranglarga bo'yadi. Fransuz inqilobi ikki xalq: zabt etuvchilar - franklar va zabt etiluvchilar – gallar o'rtasidagi kurashning so'nggi aktlaridan biri deb qarala boshlandi. Bosib olish yangi va eski Yevropaning asosiy fakti va eng katta bosh og'rig'i hisoblanardi. Yevropada o'ta keskin ko'rinish olgan milliy muammo orolda ham zudlik bilan hal etilishini kutib yotardi.

Fransuz inqilobi yakobinchilar diktaturasi shaklidagi tantanasi vaqtida, xuddi napoleoncha diktatura vaqtidagi kabi Skottga har qanday insonlar tarixining tugatilishi bo'lib ko'rinishi mumkin edi. U insoniyatga nima bo'layotganligining izohini topishi shart edi. Pessimizm va mizantropiyaga qarshi keskin kurash uning uchun birinchi darajali vazifa bo'lib, Napoleonning yiqitilishini Skott tarixiy jarayon mohiyati o'z tasdig'ini topdi deb bildi. Davlat manfaatlari nazariyasi, odamlarning yirik jamoalariga o'z irodasini tiqishtirishni istaganlarning kuchga tayangan siyosati, mavjud holatni hisobga olmay, tarixiy jarayonni adolat va huquqni o'z tushunchasi bo'yicha rejalashtiradigan ratsionalizm, tarix va hayotning tabiiy kechishini aldashga intiladigan fitna (intriga), - ana shularning bari Skottning ongida o'ziga xos iz qoldirgan fransuz inqilobi muammosi bilan bog'liq edi. An'anaviylik unga ratsionalizm va eksperimentatorlikdan najot yo'li

bo‘lib tuyuldi, ammo u hamma narsani boricha saqlab qolish Yevropada yana bir inqilob keltirib chiqarishi mumkinligini yaxshi tushunardi. Nafaqat siyosiy zarurat, balki ijtimoiy adolat ham an‘analarning yengib o‘tilishini, ya‘ni taraqqiyot va ilgarilashni talab etardi. Shu sababli Skottning an‘anaviyligini ma‘lum darajada ilg‘or deb bilish mumkin: inqilobga qarshi qo‘yilish bilan birga, u nooqilona va xavfli reaksiyaga ham qarshi turgan.

Fransiyada Skott fransuz inqilobi va mamlakat oldida turgan muammolar: “1789 yil tamoyillarini” tasdiqlash, demokratik taraqqiyot va erkinliklarni himoya qilish kabi muammolar nuqtai nazaridan qabul qilindi. Skottga Italiyada berilgan talqin mahalliy jamiyat oldida restavratsiya bilan birga yuzaga kelgan Risorjimento masalalaridan kelib chiqqan edi. Ispaniyada Skott talqinini siyosiy erkinliklar va fransuz ta‘siriga qarshi milliy madaniyat uchun kurash belgilab berdi, chunki bu kurashni aynan Skott yordamida amalga oshirish mo‘ljallangandi. Shvetsiya adabiyotida ham shunga o‘xshash jarayonlar kechdi: K. I. L. Almkvist, uning tadqiqotchilari so‘zi bilan aytganda, Skottdan uning «texnikasi»ni, hatto Jini Dine obrazini o‘zlashtirgani bilan, ammo baribir bu yozuvchini Skott “maktabi”ga oid deb aytish qiyin. Bu, Almkvist Skott ijodini qayta, o‘ziga xos, shvedcha nuqtai nazardan idrok etib, Skottdan olgan ilhomidan o‘z masalalarini hal qilish uchun foydalandi. I. L. Runeberg, Shvetsiya i Finlyandiyaning Rossiya bilan 1808 yilgi kurashini tasvirlar ekan, Skottdan ilhomlanadi, aniqrog‘i, shu ilhomni skandinav munosabatlari tiliga o‘giradi. O‘z hindulari va trapperlarini Skott qahramonlariga qiyosan yaratgan F. Kuper, yosh Amerika va uning ozodlik kurashi epopeyasini yaratadi. Germaniyaga Valter Skottning «The Sir 1 Sigfus V 1 b n d a I, Scott in Swedish Literature Walter Scott Quarterly», Jan. 1928. romantizm an‘analari deyarli vayron bo‘lganidan keyingina kirib kelishiga imkon paydo bo‘ldi: ana shu uslubda yaratilgan ilk roman faqat 1830 yilda yozildi. Rossiyada, dekabr qo‘zg‘oloni muvaffaqiyatsizlikka uchrab, turli tarixni o‘rganadigan maktablar yuzaga kelgan, g‘arbcha va slavyanofil yo‘nalishi tarafdorlari bahslari, o‘zining alohida milliy tarixiy yo‘lini izlash davrida Skott Yevropani junbushga keltirgan muammolarni hal etishdagi ilk tajriba sifatida – ratsional, isyonkor fransuz

adabiyoti va orzu-hayollar hamda harakatsizlik og‘ushiga g‘arq bo‘lgan nemis adabiyotlariga qarama-qarshi qo‘yish uchun tanlab olindi.

Biroq har bir alohida mamlakatda siyosiy va ijtimoiy muammolarni hal qilishning turlicha usullari mavjud bo‘lgan. A. de Vini, Balzak, Merime yoki Viktor Gyugo, ularning barini Restavratsiya davrida o‘zlarini birlashtirgan umumiy jihatlarga qaramay, Skottni har biri o‘zicha va farqli ravishda talqin qilganlar. «Sen-Mar» va «Shuanlar», «Karl IX davri solnomasi» kabi asarlar birdek Skott ijodidan ilhomlanib yaratilgan, biroq u har bir asarda o‘zgacha aks etib, bu yozuvchilarning har birini boshqalaridan o‘zga yo‘nalishda yetaklagan.

Ispaniyada ham, mahalliy shart-sharoitga bog‘liq ravishda, Skott ta’siri bir necha bosqichni bosib o‘tdi va uning asarlarining Lopes Solersaning «Kastiliya otryadlari» yoki Xose de Espronsedaning «Sancho Soldanya»si, Vilyosladaning «Navarraning oq ayoli» romanlariga tashqi ko‘rinishi bilan o‘xshashligi Skottning mafkuralar kurashidagi ahamiyati va vazifasini belgilab bermaydi². Mandzoni, d'Adzelyo va Gveratssini Skott ta’sirida ayri holda ko‘rish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Ammo xuddi ana o‘sha Risorjimento g‘oyasidan ruhlanib yaratilgan «Unashtirilganlar», «Ettore Fyerasmoska» va «Florensiya qamali», Italiya siyosiy va adabiy xaritasida o‘zaro keskin qarama-qarshi o‘rinlarni egallaganlar. «Lixstenshteyn»

Gauffa, Germaniyada Valter Skott usulidagi romannavis, o‘z moyilligiga ko‘ra Teodor Fontane romanlariga o‘xshamaydi. Rossiyada Zagoskin, Lajechnikov, Pushkin va Lermontovlar olam, tarix va san’atga turlicha, ba’zan bir-biriga umuman teskari nuqtai nazarlarni e’tirof etsa ham, biroq ularning har biri o‘z ijodida Skott badiiy tajribasini hisobga olib, ma’lum darajada unga tayangan ham.

Skottning Yevropa adabiyotiga ta’siri vaqtini ham aynan shu sabablar belgilab berdi. Fransiyada bu davr Iyul inqilobi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni tubdan o‘zgartirib, mamlakat qarshisida yangi qiyinchilik va muammolar qo‘ygan bir vaqtda tugadi. Ispaniyada ko‘p jihatdan Skottga bog‘liq bo‘lgan kostumbrizm, shu bilan birga uning shon-shuhratini cheklab qo‘ydi. Italiyada Skott ta’siri bilan bog‘liq tarixiy roman deyarli Risorjimento oxiriga qadar, o‘zi Fransiyadagi

yetakchilik mavqeini yo‘qotganidan so‘ng bir necha o‘n yillar mavjud bo‘ldi. Shvetsiyada tarixiy roman janri 1850 yillardan nariga o‘tmadi. Germaniyada 1830 yildagina o‘zini namoyish etib, Skottning tarixiy romannavis sifatidagi ta’siri tezda tamom bo‘ldi, chunki siyosiy jihatdan faol, yangi adabiy maktablar yuzaga keldi. Rossiyada o‘zining Iyul inqilobi bo‘lmasa ham, ammo tarixiy roman 1840 yillar chegarasidan o‘ta olmadi, chunki rus yozuvchilarining yangi avlodlari yangi janrdagi yangicha vazifalarni hal qilishi talab etilib, “Knyaz Serebryaniy” esa, masalan, mamlakatni ilhomlantirgan. Asosiy adabiy manfaatlar qatoridan joy egallamadi. O‘z yurtida, chartizm burjua Angliyasining mavjudligiga tahdid solib turgan bir vaqtda tarixiy roman o‘z dolzarbligini yo‘qotib, Skottga qiziqish keskin pasayib ketdi.

Biroq uning ta’siri faqat birgina tarixiy janr hayoti bilan cheklanmaydi. U Skottning shuhrati so‘na boshlagan davrda ham saqlanib qoldi, chunki u asosan zamonaviy hayot to‘g‘risidagi roman uslubini belgilab bergandi. Ispaniyada kostumbrizm, Italiyada «xalq» adabiyoti, Fransiyada Balzak, Gyugo, Stendal va Merime kabi ijodkorlar, asr o‘rtalarining rus va ingliz romannavislarining buyuk maktabi ko‘plab iplar bilan Skott ijodiga bog‘liq bo‘lib, usiz XIX asr adabiy jarayonini tasavvur qilib ham bo‘lmaydi.

Shu bilan birga jamiyat manfaatlari o‘zga yo‘nalishda ketib borardi. Yevropa oldida turgan vazifalarga mos va xos san’at yaratish talab etilgan edi. Skottga qarshi reaksiya yangi san’at nomi ostida avj oldi. Xalqning og‘ir ahvolidan hayajonlangan Karleyl uning romanlarini besabab xursandchilik, tashqi samara izlashdan iborat, ularni ishyoqmas va tepsa tebranmaslar uchun mo‘ljallangan san’at deb topib, Skottni davrning buyuk insonlar qatoridan chiqarib tashladi. Hatto Skottda na aql, na daho va na vijdon yetishmaydi, chunki u zamonaviy vazifalar va xalq muammolari to‘g‘risida so‘zlash o‘rniga kitobxonni rangli rasmlar bilan aldab, haqiqatdan ko‘ra ko‘proq yolg‘on aytgan deb aytuvchi tanqidchilar ham topildi. Uning zamondoshlari yozuvchini shunchaki shon-shuhrat erkasi, baxtli inson, ammo jiddiy odamlar e’tiboriga noloyiq hisoblab xato qilganlar.

Biroq adabiyot tarixi xatolar tarixidan iborat emas. Fikrimizcha, omadning ana shunday tebranishlari sababini ijtimoiy hayot tarixidan izlash kerak. Skott janubiy dengizlar bo'ylab o'zining so'nggi safariga chiqqanida jamiyat chuqur o'zgarishlarga yuz tutgan edi. Skott va uning zamondoshlarini hayajonlantirgan narsalar yangi avlodni qiziqitirmay qo'ydi. Uning romanlari avvalgi ta'sirchanligini yo'qotdi. Ularning bosh mohiyatini tashkil etgan narsalar yo'qoldi. Ularni endi hohlagancha tanqid qilish mumkin, chunki ularni hech kim tushunmasdi. O'ta ijobiy sevishganlar, o'ta sodda, hatto primitiv zolimlar, kitobxonni charchatib yuboradigan, uzundan uzoq sarguzashtlar, effektli, lekin haqiqatdan yiroq vaziyatlar, nasihatgo'ylik, jiddiy va o'ziga e'tibor talab qilgan voqelikdan tez-tez "tarixga qochish" – yangi avlod Skottning asl mohiyati va jozibasini tashkil etgan barcha narsadan mahrum bo'lgan asarlarida faqat shuni ko'rar edi. Skottning adabiyotdagi taqdiri tarix qonunlariga so'zsiz bo'ysundi. To'g'ri, davrning N.G.Chernishevskiy kabi buyuk shaxslari hamon uni yuksak baholashda davom etdilar. Ana shu unutilish davri tugadimi? Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra Skottning o'limidan keyin o'tgan vaqt davrida yangi bosqich boshlanmoqda. Uning romanlari juda katta adadlar bilan chop etilib, tarqalib ketmoqda. Agar unga haqiqatan ham yangidan, bolalar yozuvchisi, yo sarguzasht romanlar muallifi sifatida emas, balki o'z san'ati uchun ma'naviy jihatdan mas'ul, yirik ijodkor va tarixchi deb qaralsa, uning romanlari ma'naviy madaniyatning muhim elementlaridan biriga aylanadi. Davrimizning tarixiy tajribasiga tayanib, biz ana shu san'atni butun chuqurligi bilan qalban his etib, unga ochiq yurak va hamdardlik bilan javob berardik. Og'ir kurashlar va buyuk ishonchlar og'irligini yelkasida his etgan, barcha tarixiy hodisalarning va har bir insonning boshqalar bilan o'zaro aloqadorligini sezgan vatandoshlarimiz Skott ijodida o'zga avlodlar ko'ra olmagan narsalarni izlab topadilar.

Mazkur yangi anglash, har qanday anglash kabi Skottni boshqa tajriba va boshqa tushunchalar tiliga o'girishdan iborat bo'ladi, ammo u shuningdek zamonaviy davrni ilgari eltayotgan ulkan qonunlarning yutug'i ham bo'ladi. Xaos o'rniga erkinlik, boshboshdoqlik emas, balki ma'naviy mas'uliyat hissi,

baynalmilal ko‘lamda fikrlash, tarixni oliy adolatni uzviy ravishda e’tirof etish deb anglash – Valter Skott ijodini jahon san’ati rivojida muhim bosqich sifatida anglaydigan va uni umriboqiy badiiy qadriyat deb qabul qiladigan yangi estetik ongning debochasi ana shulardir.

UMUMIY XULOSA

Bir necha o'n yillar davomida Valter Skott Yevropaning eng buyuk yozuvchilaridan biri bo'ldi. Uning har bir yangi asari shu zahotiyoyq bir necha tilga o'girilib, ko'plab nashrlarda bosilib chiqardi. Gazeta va jurnallar uning nashr etilayotgan har bir romanini qutlab, u haqida maqolalar chop etar, shoirlar u haqida kuylar, romannavislar unga taqlid qilishar, tarixchilar ilhom olishar, musavvirlar asarlari asosida suratlar, bastakorlar opera yaratardilar. "Buyuk daho, asrimiz faxri, shonu-shuhrati" degan edi Belinskiy. Valter Skott Shotlandiyani dunyoga tanitgani kabi har bir mamlakat o'zini mashhur etadigan Skottini kutardi. Uning Yevropa madaniyati, tarixi, adabiyoti va san'atiga ta'siri beqiyos bo'ldi.

Skottning har bir romanida tarixiy taraqqiyot so'zsiz g'alaba qozonishi g'oyasi tantana qiladi. U insoniyat adolat uchun tarix shunchalar boy bo'lgan barcha zulm va imkoniyatlar yordamida kurashishiga ishonchi komil edi. O'zining barcha tarixiy o'zgarishlarida va turli-tuman ko'rinishlarga kirib, adolat doimo odamlarni ilgari yetaklaydigan kuch bo'lib qolaveradi va Skott bu ishonchni har bir romanida, uning syujeti naqadar qahrli va shafqatsiz, undagi odamlar qanchalar aqlini yo'qotgan bo'lmasin, kitobxon ongiga quyib boradi. Ijtimoiy halokatlar va baxtsizliklarning eng qorong'i davrlarini tasvirlagan ushbu romannavis-tarixchining yuksak, lol qoldiruvchi optimizmi ana shu yerda yashirin.

Taraqqiy etib boradigan an'anaviylik Skottda folklorni o'rganishi bilan birga taraqqiy etib bordi. Uning uzoq yillar davomidagi sodiq yo'ldoshlari – shotland balladalari adib ongida bir necha bosqichdan o'tdilar. Avval bu "qo'rqinchli" janr turlaridan biri, o'sha davr adabiy izlanishlariga xalq qo'shimchalaridan biri edi. So'ng ular yozuvchini na arvohlar va na sirlar bilan bog'liq bo'lmagan estetik xususiyatlari bilan o'ziga jalb qildilar. Nihoyat, ular Skott uchun xalqning tirik tarixi, uning donoligi va qalbiga aylandilar. Bu asarlar taqlid balladalaridan ko'ngli sovib, poemalar yozmay qo'yganida ham o'z qadr-qimmatini yo'qotmadilar. Roman janriga o'tib, u balladani tark etganday bo'ldi. Biroq aynan ana shu vaqtda u Skottga xuddi birinchi marotaba kabi "qaytib keldi". Davr xarakteri, unga xos

bo‘lgan kechinmalar, oddiy va murakkab insonlar, ko‘hna o‘tmish she‘riyati, hayotning to‘liqligi, ochiq hikoya qilish usuli, personajlar yashayotgan insoniylik va adolat muhiti – bularning barini u shotland balladalaridan o‘rgandi.

Albatta, bu adib duch kelgan hal qiluvchi ta’sir kuchi edi, chunki ballada ruhi uning ijodini ilgari yetaklagan kuchga va u rivoj topgan muhitga aylandi. Berns, Filding, Ejuort, Redklif, barcha romannavislar, shoirlar, faylasuflar, uning zamondoshlari va undan avvalgi yozuvchilar ongida ma’lum iz qoldirib, biron nima o‘rgatib ketdilar, biroq bu saboqlar uning uchun ikkilamchi bo‘lib qoldi. Ularning ta’siri xalq balladasidan olingan asosiy taassurotlar qatlami ustiga tushdi. Hatto buyuk SHEkspir ham Skott uchun bevosita ilhom manbai sifatida emas, balki uning estetik moyilliklarini izohlash va badiiy tafakkurida shakllangan ba’zi muammolarni hal qilish uchun kerak edi.

Romanni isloh etish bilan Skott tarixni ham isloh qila bordi. Ilmiy asar orqali amalga oshirishning imkoni bo‘lmagan narsani u san’at vositalari yordamida bajardi. U yangi fan, u bilan birga yangi tadqiqot usulini ochish bilan yangi tarixiy fan yaratdi. U arxeologiya, biografiya va barcha boshqa tarixiy manbaalardan foydalandi, biroq e’tibor markaziga tasavvur yordamida tiklash talab etilgan xalq hayotini joylashtirdi. Adib romannavis ekanligi sababli tarixchi ham bo‘ldi. Tarixiy haqiqatni to‘qima qobig‘iga o‘radi va ular orasidagi ziddiyatni yo‘qotdi. Unga haqiqat barcha yuksak yolg‘onlardan foydali bo‘lib tuyulardi. Uning ko‘plab zamondoshlari uchun bo‘lgani kabi, haqiqat uning uchun ham go‘zallikka aylandi, chunki go‘zallik boshqa madaniyat va davr odamlari uzil-kesil belgilab bergan, qotib qolgan va u yoki bu darajada mavhum shakl emas, balki tarixiy hodisa, inson aqli yutug‘i edi.

Mumtoz yozuvchilar bilgan ma’nodagi mutlaq go‘zallikdan bosh tortib, Skott “mutlaq”, ya’ni ideal qahramon obrazidan ham voz kechdi. U tarixiy shaxslar, ya’ni o‘z davri, odatlari, tarbiyasi orqali cheklangan odamlarni tasvirlay boshladi. Ammo u bu odamlarda odatlardan tashqari ma’naviy ongini ham ko‘ra oldi. O‘zi yaratgan odamlarni o‘ta mahoratli tarixchi sifatida tushuntirar ekan, muallif ularni ma’naviy mas’uliyat hissidan ozod qilmaydi, chunki uning fikricha,

busiz tarixiy taraqqiyot bo'lishi mumkin emas. Tarixiy halokatlarda u odamlar baxtsizligi, falokatinigina emas, shuningdek vijdon dramasini ko'rib, unda uning butun fojeasiga qaramay, buyuk yupanch hissi yashirin.

Skott romanlarida o'z tarixiy xizmatini amalga oshirayotgan shaxslar, ma'lum ma'noda ularni o'zlari yaratishlariga qaramay, tarix qonuniyatlariga bo'ysunadilar. Bu ijtimoiy munosabatlar, ma'naviyatga oid tushunchalar, shaxsiy va jamoaviy manfaatlar bilan bog'langan va ajratilgan omma, olomon, ziddiyatlarga to'la birlikdir. Individual qahramon Skott romanida yangicha ma'noga ega bo'ldi. Guruh ichida qo'shilib ketmay, u o'zining yagonaligini yo'qotdi. O'z shaxsiyatini saqlab qolib, u shaxs bo'lish bilan birga nafaqat ruhiy, balki ijtimoiy ko'rinishdagi qamrovli qonuniyatlar egasiga aylandi. Shu tariqa Skott qahramoni o'z yurti hayotiga kira olmadi va o'z xulqi, ishlari bilan inson va xalqlar taqdiri joylashadigan asl tarixiy roman yaratmadi.

Tilshunos va tarixchi bo'lgan Skott, o'z zamonasining an'alarini o'zlashtira borib, ularni tanib bo'lmas darajada o'zgartirib yuborardi. Uning romanlari bilan 1820 yillarda tanishgan kitobxonlar uning "qora" roman bilan aloqadorlikda, sarguzashtlar sonining ko'pligi yoki XVIII asr sarguzasht va tarixiy romanlaridagi kabi tarixni buzib ko'rsatishda ayblay olmasdi. Ammo barcha ilmfan va adabiyot tarixida yangi davr yaratgan ijodining yangilik xususiyati haqida uqtirishardi. Ular o'zlaridan keyingi, Skott va undan avvalgi romannavislar o'rtasida o'xshashlik izlab, uning asarlarini an'analarni ko'r-ko'rona o'zlashtirib olishdan boshqa narsa emas deb fikr bildirgan adabiyot tarixchilariga ko'ra haq edilar.

Jonajon tuproqdan kuch olgan, Yevropa voqeligi havosidan nafas olgan, Yevropaning barcha mamlakat adabiyotlari yutuqlarini turlicha va ehtiyojiga qarab tatbiq etgan Skott ijodi, balki aynan shu sababli ham o'ta original ko'rinish hosil qilgan bo'lsa kerak. U o'zini yaratgan davrga, uning izlanishlari, kashfiyot va adashishlariga yakun yasaganday bo'ldi. Adibning tarixiy romanlariga xos lol qoldiradigan zamonaviyligini ham ana shu hol belgilab berdi.

Ijodining «mahalliy» va shu bilan birga yevropacha xarakteri uning asarlari barcha milliy chegaralardan oʻtib, Yevropaning barcha mamlakatlarida oʻz ishqibozlarini topishiga sabab boʻldi. Imperiya davrida va uning inqirozidan keyin ham atrofda yashirin yoki oshkora tarzda milliylik gʻoyasi yurar, Skottning hech kim bilmaydigan mamlakat toʻgʻrisida hikoya qilgan romanlari barcha yerda qadrdon, oʻzlarining milliy asari kabi qabul qilindi. Nafratdan toʻlib-toshgan, hali ham buyuk jangu-jadallardan sovub ulgurmagan, hamon eski alamlari uchun oʻch olib, tinchlik va taraqqiyot haqida xom hayol surayotgan Yevropa ushbu romanlarning shekspirona xolisligini oʻziga xos kashfiyot sifatida qabul qildi. Skottning qitʼa adabiyotlariga taʼsir darajasi uning turli mamlakatlar yozuvchilari tomonidan naqadar chuqur anglanishi va mazkur mamlakatning ehtiyoj va vazifalari rejasiga qanchalar kirib borishi mumkinligiga bogʻliq edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

RAHBARIY ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch.-Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. –Toshkent: O‘zbekiston,2010.
3. Karimov I.A. Biz kelajagimizning o‘z qo‘limiz bilan quramiz. T., 1999.

ILMIY ADABIYOTLAR

1. Bokaeva M., Murodova E. Ochilova N. “English literature” Tashkent 2006.
2. Бельский А.А. «История зарубежной литературы XIX века» Москва, Высшая школа, 1979 г.
3. Богословский Г.А. «История зарубежной литературы XIX века» Москва, Высшая школа, 1991 г.
4. Ботникова А.Б. «Взаимодействие жанра и метода в зарубежной литературе 18-20 вв». Воронеж, 1982 г.
5. Boynazarov Fayzulla “Jahon adabiyoti” Toshkent, “zar qalam” 2006 y
6. Гуляев «Теория литературы» Москва, Высшая школа, 1985 г.
7. Жирмунский В.М «История зарубежной литературы. Романтизм» Высшая школа, 1990 г.
8. Жирмунский В.М «История зарубежной литературы. 19 века» М. Просвещение 1990 г.
9. Жирмунский В.М «История зарубежной литературы 19 века» М. Просвещение 1991 г.
10. Ketrin Vanspenkeren. Amerika adabiyotining asoslari. Toshkent, 1994.
11. Muhabbat Sharafiddinova. XX asr adabiyotida absurd hayot ruhi. “Jahon adabiyoti” jurnali, 2005, 1-son.
12. Tilavoldi Jo’rayev. Jeysms Joys. Toshkent, “Navro’z”, 1993.

13. Низамова М.Н. «Основные тенденции в развитие английской литературы XIX века». Тошкент 2003 г.
14. Normatova Shoiri “Jahon adabiyoti” Toshkent, Cho’lpon 2008 y
15. Nazar Eshonqul. Mendan “Men”gacha. Toshkent, “Akademnashr”, 2014
16. Каюмов О., Азизов К. «Чет эл адабиёти тарихи» Тошкент, 1987 г.
17. Umarali Normatov. Qodiriy bog’i. (A.Qodiriy hayoti va ijodi haqida). Toshkent “Yozuvchi”, 1995.
18. www.rambler.ru/english literature of 19th century.